

**M.B.RAXIMQULOVA, D.J.NURMANOVA**

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDAGI VA YUQORI  
SINF RAHBARLARINI UZLUKSIZ  
KASBIY RIVOJLANTIRISH**

**(MALAKA OSHIRISH  
KURSLARINING ROLI)**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

SAMARQAND VILOYATI XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNI MALAKASINI OSHIRISH  
HUDUDIY MARKAZI

**M.B.RAXIMQULOVA, D.J.NURMANOVA**

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDAGI VA YUQORI SINF  
RAHBARLARINI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH**  
(MALAKA OSHIRISH KURSLARINING ROLI)

*(USLUBIY QO'LLANMA)*

"QAMAR MEDIA" NASHRIYOTI  
TOSHKENT – 2022

**UO'K 373.21(072)**

**KBK 74.100(50')**

**SH 74**

**M.B.Raximqulova, D.J.Nurmanova** Boshlang'ich ta'limdagi va yuqori sinf rahbarlarini uzlusiz kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish kurslarining roli). Uslubiy qo'llanma. -Toshkent: Qamar media nashriyoti, 2022-yil. 66 bet.

**Ma'sul muharrir:**

P.f. bo'yicha falsafa (PhD)

doktori, dotsent **A.A.Ibragimov**

**Taqrizchilar:**

p.f.n., **A.Rahimov**

Ushbu uslubiy qo'llanma sinf rahbarlarining kasbiy kompetenliklarini oshirishda malaka oshirish kurslari hamda mustaqil kasbiy rivojlanish trayektoriyasi ishlab chiqilgan.

Shuningdek, unda boshlang'ich va yuqori sinf rahbarlari (malaka oshirish kurs tinglovchilari) uchun amaliy ishlarda foydalanish masalalari yoritilgan.

Uslubiy qo'llanma malaka oshirish tinglovchilari hamda umumiy o'rta ta'lim mifik mazkur o'qituvchilariga mo'llangan.

*Ushbu uslubiy qo'llanma Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi Ilmiy Kengashining 2022-yil 11- may 2-sonli qaroriga binoan nashrga tavsiya etilgan*

**ISBN 978-9943-8048-3-8**

© M.B.Raximqulova, D.J.Nurmanova

© "Qamar media" nashriyoti

## KIRISH

Boshlang'ich sinf o'qituvchilar sinf rahbarlik sifatidagi kompetentligini rivojlantirish, o'z ustida doimiy mustaqil ishlash, kasb mahoratlarini doimiy oshirib borishlariga katta e'tibor qaratishlari bugungi kunning dolzarb mavzusidir.

Barchamizga ma'lumki, pedagog kadrlar malakasini oshirish har besh yilda bir marta belgilangan edi, ammo hozirgi zamonda ta'lim jarayoni shiddat bilan rivojlanayotgan davrda besh yilda bir malaka oshirish o'qituvchining kasbiy rivojlantirishi uchun uzoq vaqt hisoblanadi. "Lifelong learning" tamoyil asosida xalq ta'limi xodimlarini ularning malaka darajasi, bilimi, ilmiy pedagogik salohiyati, ish tajribasi, psixologik tayyorgarligi kabi malaka oshirish dasturlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son qarorida 2021-yil 1-martdan boshlab tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari tomonidan xalq ta'limi xodimlarining malaka oshirish bo'yicha ehtiyojlarini o'rganiladi hamda "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasi orqali ularning individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi tuziladi, xalq ta'limi xodimlarini malaka darajasi, bilimi, ilmiy-pedagogik salohiyati, ish tajribasi, psixologik tayyorgarligi va individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasiga mos keladigan tabaqlashgan malaka oshirish dasturlari bo'yicha o'qitish amaliyoti yo'lga qo'yilishi to'g'risida vazifalar amalga oshrilishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabdag'i PF-6108-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonda so'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog'cha tarbiyalanuvchilari, o'quvchi va talaba yoshlarda

zamonaviy bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish, ta'lim tizimi hamda ilm-fan sohasi o'rtasidagi yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta'limning uzviyligi va uzlusizligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, milliy ta'lim-tarbiya tizimining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, yoshlarni yuksak bilim-ma'rifat egalari, jismoniy va ma'naviy sog'lom insonlar etib tarbiyalash, ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog xodimlari nufuzini oshirish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun shart-sharoitlar yaratish bo'yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etmoqda.

Mamlakatimiz ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda o'qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziyolilarga bo'lgan hurmat-e'tiborni yanada oshirish, o'qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish tizimda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish maqsadida, umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim muassasalari va kasb-hunar maktablari pedagoglariga 2020-yil 1-noyabrdan boshlab sinf (guruh) rahbarligi uchun qo'shimcha to'lovlar 1,5 baravarga oshirilishi" haqida ko'rsatma berilgan.

Yuqoridagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabdagagi PF-6108-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son qarori "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzlusiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaror, Xalq ta'limi vazirligining 2021-yil 22-fevraldagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 5-sinfdan boshlab

yagona sinf rahbari faoliyatini tashkil etish haqida"gi 41-sonli buyrug'i bilan sinf rahbarlariga qo'yilgan talablar o'zgarib yangi "Umumiy o'rta ta'lim muassasasining sinf rahbarlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi yangi Nizom ishlab chiqildi.

Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son qaroridagi 4-bandida keltirilgan uzlusiz kasbiy rivojlanish va 6-bandida sinf rahbarlarini o'qitishni hududiy markazlarida o'quv kurslarini tashkil qilish bo'yicha choralar ko'rish haqida [2], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzlusiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son Qarorning 1-bandida "Xalq ta'limi xodimlarini ularning malaka darajasi, bilimi, ilmiy-pedagogik salohiyati, ish tajribasi, psixologik tayyorgarligi va individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasiga mos keladigan tabaqalashgan malaka oshirish dasturlari bo'yicha o'qitish amaliyoti yo'lga qo'yiladi" - deb belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda xalq ta'limi xodimlarini kasbiy rivojlantirish va malakalarini uzlusiz oshirishlari ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilariga sinf rahbari sifatidagi kompetentligini rivojlantirishlarining ish samaradorligini kafolatlaydi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasasining sinf rahbarlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha Xalq ta'limi vazirligining 2021-yil 22-fevraldagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 5-sinfdan boshlab yagona sinf rahbari faoliyati faoliyatini tashkil etish haqida"gi 41-sonli buyrug'i bilan sinf rahbarlariga qo'yilgan talablar o'zgarib yangi "Umumiy o'rta ta'lim muassasasining sinf rahbarlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi yangi Nizom tasdiqlandi. Shunga ko'ra sinf rahbarlari o'z ish faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasi qarorlariga,

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining buyruqlariga, mazkur nizomga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiy amalga oshirib boradi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'zlarini sinf rahbari sifatida kasbiy rivojlantirishlari uchun bugungi kunda qulay shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Jumladan, xalq ta'limi xodimlarining kasbiy kompetentligini yanada takomillashtirish uchun hayot davomida o'qish tamoyili asosida "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasi ishlab chiqildi va A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot institutining elektron veb-saytida mashg'ulotlar tashkil qilinib pedagog xodimlar o'qitib kelinmoqda.

## **1.1-& BOSHLANG‘ICH TA’LIMDAGI SINF RAHBARLARINI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHNING ROLI (MALAKA OSHIRISH KURSLAR MISOLIDA)**

Hozirgi kunda ta’lim tizimida ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish jiddiy vazifa bo’lib kelmoqda. Buning uchun har bir o’qituvchi o’z fanini o’qitishning eng samarali zamonaviy ta’lim texnologiyalarini puxta bilishi, kasbiy kompetentligini va mahoratini uzluksiz oshirib borish talib qilinmoqda.

Ta’lim-tarbiya jarayonini sifat va samaradorligini oshirib borish III-renesans boshlanishining asosi ekanligi barchamizga ma’lum. Buning uchun esa umumiyligini o’rta ta’lim muassasalarining o’qituvchilariga hamda ularning malakasini oshirish hududiy markazlarining pedagog xodimlari oldiga ulkan vazifalarni qo’yadi.

Zero, ta’lim-tarbiya tizimida sifat va samaradorlikni oshirishda sinf rahbarlarining (boshlang‘ich ta’lim va yuqori sinf o’qituvchilari) o’rni beqiyosdir. Bu borada O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining 2021-yil 22-fevraldagagi “Umumiyligini o’rta ta’lim muassasalarida 5-sinfdan boshlab yagona sinf rahbari faoliyatini tashkil etish haqida”gi 41-sonli buyrug’i va shu buyruqqa ilova “Umumiyligini o’rta ta’lim muassasasining sinf rahbarlari faoliyatini tashkil etish to‘g’risida”gi yangi Nizomga muvofiq sinf rahbarlarining ish faoliyatlarini aniqlashda mezonlar asosida amalga oshiradi.

Ta’lim sifatini oshirishda sinf rahbarlarining o’rni ta’lim oluvchilarning o’quv jarayonlaridagi ta’limiy va tarbiyaviy holatini yaxshilashda, o’quvchilarning kasbiy qiziqishlarida, sohaviy yo’nalishlarini aniqlashda, ijtimoiylashuvida alohida ahamiyatga ega.

Sinf rahbarligi Rossiya ta’lim sohasiga 1871-yildan boshlab rasman murabbiylar tayyorlash tizimi yo’lga qo’yila bosholangan va maktablarga lavozim sifatida kirib kelishi 1871-1917-yillarga to‘g’ri

keladi va Rossiyada rasman murabbiylar tayyorlash tizimi xuddi shu yillarda yo'lga qo'yilgan.

1917-yildan 1934-yillargacha yosh avlod tarbiyachisi va sinf rahbarlari sifatida faoliyat ko'rsatishgan.

1934-1941-yillarda bu lavozim egalari sinfda tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga mas'ul bo'lganlar. 40-yillarga kelib sinf rahbari faoliyatiga jiddiy qarorlar, me'yoriy huquqiy asoslar bilan ta'minlandi.

1941-1945-yillarda yoshlarni birlashtiruvchi kuch sifatida e'tirof etilgan.

1970-yilda maktablarning to'liq umumiyoq o'rta ta'limga huquqiy o'tishi bilan lavozimga ehtiyoj ortadi va faoliyat mazmuniga faqat o'quvchilarning tarbiyaviy masaladagi yondashuvi emas ya'ni ijobjiy yo'nalishlar bilan bir qatorda turli mehnat turlari (qishloq xo'jalik ishlari, turli jamoaviy ish shakllari)ga ham jalb qilindi.

Rus olimi Ye.N.Barishnikovning sinf rahbarlarini aniq vazifani bajaruvchi, nazoratchi sifatida ta'lim jarayonida o'quvchilarning muvofaqiyatli o'zlashtirishi, dars jarayonidagi o'quvchilar ishtiroki, mavjud qonunlarga va maktab jamoasidagi axloqiy normalarga o'quvchilarning rioya qilishini tartibga soluvchi, nazoratchi pedagog sifatida tavsiflaydi. Sinf rahbarlari faoliyati rejalashtirish, ta'limni oqilona taqsimlash hamda muvofiqlashtirish uchun mo'ljallangan faoliyatdir.

Sinf rahbari ota-onalar (bolaning qonuniy vakillari), o'qituvchilar va boshqa ta'lim subyektlari bilan birgalikda o'quvchining individual o'quv trayektoriyasini ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi, ijtimoiy-madaniy, ma'naviy, umume'tirof etilgan xulq-atvor qoidalari va talablari asosida har bir o'quvchining jamiyatda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi, o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini anglashi uchun ko'maklashuvchi bola manfaatini har tomonlama himoya qiluvchi subyekti, jamiyat va bola o'rtasida ma'naviy vositachi, kordinatordir. Demak, ushbu lavozim shunchaki

majburiyat emas, balki tuganmas ijodkorona faoliyat va yuqori darajadagi mas'uliyat hamdir.

So'nggi yillarda ta'lif tizimini isloh qilish jarayonida sinf rahbarlari instituti o'rniga sinf o'quvchilarining shaxsiy muammolarini hal qilishda yordam beradigan, ularning individual ta'lif trayektoriyalarini yaratadigan tyutor, edvayzer, fasilitator, moderator, supervayzer (jamoani boshqaruvchi, sinf rahbari) kabi lavozimlari kirib kelmoqda.

**TYUTOR** - (tutorem-lotincha) ustoz, murabbiy vazifasini bajaradi. Ba'zi hollarda ma'ruza o'qituvchisi bilan o'quvchi orasidagi bog'lovchi rolini ham bajaradi. Bunda ma'ruzachi tomonidan berilgan bilimlarni keng egallashda maslahatchi va ustoz rolini bajaradi.

**EDVAYZER** - (advisor)-fransuzcha "avisen" "o'ylamoq") o'quvchilarning individual holda mustaqil topshiriqlar va loyihalarini bajarishda maslahatchi rolini bajaradi.

**FASILITATOR** - (lotincha facilis-yengil, qulay)- sinflardagi faoliyat natijasini samarali baholash, muammoning ilmiy yechimini topishga yo'naltirish, sinfdagi kommunikasiyani rivojlantirish kabi vazifalarni bajaradi.

**MODERATOR** - qabul qilingan qoidalarga amal qilishni tekshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatlarni rivojlantirish, bilish faolyatini faollashtirishga yordam beradi. Ma'lumot, seminar, treninglar va davra suhbatlarini boshqaradi, fikrlarni umumlashtiradi. Bizning ta'limda ushbu faoliyatlarning hammasini o'qituvchi bajaradi va pedagog yoki o'qituvchi deb yuritiladi.

**SUPERVAYZER** – kichik guruhdagi jamoaning kunlik ish yoki o'qishdagi faoliyatini boshqaruvchi hamda nazorat qiluvchi, murabbiy, mas'ul shaxs, rahbar xodimdir.

Yuqorida keltirib o'tilgan lavozimlar bizning mamlakatimiz ta'lif tizimiga ham kirib kelmoqda. Jumladan Tyutorlik lavozimi Oliy ta'lif tizimiga 2021-2022-o'quv yilidan boshlab joriy qilandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Respublika Oliy ta'lif muassasalarida talabalarni turar joy bilan qamrab olish darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 9-sentabrdagi 563-son qarorida:

- Oliy ta'lif muassasalarida Tyutorlik lavozimi 2021-yil 1-sentabrdan boshlanadi;
- talabalar bilan ishslash bo'yicha "guruh murabbiyi" instituti bekor qilinadi;
- 1-3-kurs talabalarining muammolarini bartaraf etishda yaqindan yordam ko'rsatuvchi tyutorlarni biriktirish amaliyoti yo'lga qo'yiladi;
- har 120-150 nafar talabaga 1 ta shtat birligi hisobida tyutor lavozimi kiritiladi hamda uning oylik maoshi "O'qituvchi-stajor" bazaviy lavozim maoshiga tenglashtiriladi;

Ushbu qaror ijrosini ta'minlash hamda nazorat qilish maqsadida Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi huzuridagi "Ma'naviyat va ma'rifat" markazi tuzilmasida Tyutorlar faoliyatini muvofiqlashtirish va monitoring qilish bo'limi tashkil etiladi. Unga ko'ra Tyutorlar talabalarning ma'naviy va ijtimoiy holatini doimiy ravishda tahlil qilib boradi va ularga mavjud muammolarni bartaraf etishda yaqindan yordam beradi.

Sinf rahbarlari faoliyatining mamlakatimiz meyoriy huquqiy hujjatlarida keltirilgan tartiblari va mezonlarining ijrosini bajarishda mavjud bo'lgan kamchiliklar, tasniflarga ajratilgan holda, tavsiflaymiz:

- ta'lif sifati bilan bog'liq kamchiliklar;
- tarbiyaviyishlarni tashkil qilish bilan bo'qliq kamchiliklar;
- ota-onalar bilan ishslash borasidagi kamchiliklar;
- uslubiy-metodik muammolar.

Shu bilan birga sinf rahbarlari faoliyatida kasbiy layoqatlilik, kasbiy harakatchanlik, raqobatbardoshlik, kommunikativlik, ishbilarmonlik, natijaga yo'naltirilgan harakatchanlik, mustaqillik va ijodkorlik kabilalar ayniqsa ahamiyatga ega sanaladi.

Bugungi kunda sinf rahbarlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishni takomillashtirishda xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirishda hududiy markazlarining o'rni beqiyosdir. Malaka oshirish deganda ta'limga bo'lgan ehtiyojlarni kasbiy faoliyat bilan bog'liq holda olib borishni anglashiladi. Natijada kadrlar zamon talablariga javob bera oladigan raqobatbardoshligini ta'minlash, ularning o'z kasbiy kompetentligini rivojlantirish va takomillashtirish tushuniladi. Bundan tashqari, malaka oshirish nihoyatda ko'p axborotlardan tanlab olish, keragini ishlata olish, ulardan o'z o'rnida foydalanish kabi komponentlarni o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini sinf rahbari sifatidagi kasbiy kompetentligini malaka oshirish jarayonida quyidagi maqsad va vazifalarni zamonaviy talablar asosida takomillashtirish tavsiya etiladi:

✓ O'zbekiston Respublikasining ta'lim-tarbiya sohasidagi davlat siyosati, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy hujjatlari, o'qituvchilarining sinf tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish mazmuni, maqsad va vazifalari;

✓ sinf rahbarining ish faoliyati, sinf jamoasini o'rganish, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish, o'quvchi ma'naviyatini shakllantirishda sinf rahbarlarining vazifalari;

✓ muktab, oila va mahalla hamkorligi ishlari;

✓ tarbiyaviy tadbirlarning o'quvchi tarbiyasidagi o'rni kabi masalalar keng yoritib beriladi.

Sinf rahbarlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish, o'quv ishlarini tashkil etish va sinf jamoasini boshqarish yo'llarini o'z ichiga olgan holda ularga tegishli yangi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltiriladi:

✓ o'ziga biriktirilgan sinfda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarishga doir me'yoriy hujjatlar;

✓ sinfni boshqarish jarayonidagi muammolarni va ularning rivojlanish istiqbollarini tahlil qilish;

- ✓ ta'lim sifati tushunchasi, ta'lim sifatini belgilovchi omillar, ta'lim sifatini ta'minlashda sinf rahbari o'rni;
- ✓ ijro intizomining yuritilishi;
- ✓ ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlar asosida, hujjatlarini to'g'ri rasmiylashtirish, ularning qonuniy yuritilishi;
- ✓ o'quvchilar bilim, ko'nikma va malaka (BKM)laridagi bo'shliqlarni to'ldirish va o'zlashtira olmaslikni oldini olish;
- ✓ axborot-tahliliy hujjatlarning asosida ta'lim va tarbiya jarayonini boshqarish;
- ✓ ta'lim sifatini monitoring qilishda ota-onalar qo'mitasi, vasiylik kengashi va mahalla bilan samarali ishslash;
- ✓ o'quv jarayonini boshqarishda ilg'or xorijiy tajribadan foydalanishda qo'yiladigan talablar asosida samarali boshqarish;
  - zamonaviy sinf rahbari qiyofasiga ega bo'lish;
  - malaka oshirish kursida o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalardan kasbiy faoliyatda foydalanish;
  - kasbiy faoliyatiga tegishli o'quv-metodik materiallarni to'plash va saralash;
  - kommunikativ, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z ustida ishslash, mas'uliyat va moslashuvchanlik, inklyuziv ta'limni olib borish, o'quv-tarbiya jarayonini holisona baholash kompetensiyalariga ega bo'lishi lozim

Sinf rahbarlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ularning kasbiy va shaxsiy kamolatini ta'minlash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, mutaxassislarni qayta tayyorlash mazmuni va tuzilmasini modernizatsiyalash, pedagogik-psixologik sharoitlarni aniqlash hamda uning sifatini nazorat qilish va baholash mexanizmini ishlab chiqish orqali kompetentligini rivojlantirishning asosiy maqsadini belgilaydi. Agarda «kompetentlik» va «kompetentlilik» tushunchalarning kelib chiqishga nazar tashlasak, ular tasodifan yuzaga kelmaganligini anglash mumkin.

“Kompetensiya” tushunchasi keng ma’noga ega bo’lib, uning mazmun va mohiyati turli soha olimlari tomonidan turlichal talqin etiladi.

Kompetensiya - u yoki bu soha bo'yicha bilimdonlik;

“Kompetensiya” (lotincha compete – erishaman, mos kelaman, to'g'ri kelaman) aniq tashkilotga yoki lavozimdagi shaxsga qonun, nizom yoki boshqa hujjat bilan taqdim etilgan vakolat demakdir.

Shuningdek, “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”da ta’kidlanishicha: kompetensiya (lot.competo – erishayapman, munosibman, loyiqliman) ma’nosini anglatib, muayyan davlat organi (mahalliy o’z-o’zini boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjati bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba demakdir”.

O’zbek tilining izohli lug’atida esa «Kompetensiya» (lot. sompetere – layoqatli, munosib bo’lmoq):

1. Muayyan organ yoki mansabdor shaxsning rasmiy hujjatlarda belgilangan vakolatlari doirasi; vakolat.

2. Shaxsning biror-bir sohadan xabardorligi, shu sohani bilish darajasi degan ma’nolarni bildiradi. Masalan, «Kompetensiya» tushunchasiga qozoq tili izohli lug’atida quyidagicha ta’rif berilgan: «umumiyligida ma’lum bir topshiriqni bajarishga qodirlilik yoki bir narsani yasash».

Ma’lum bir kompetentlikni o’zlashtirgan shaxs deganda o’z sohasiga loyiqligini bilim va malakasi shakllangan, ijobiy fikr va samarali harakat qila oladigan shaxs tushuniladi. Agar bu tushunchalarning mohiyatiga chuqur nazar tashlasak, «kompetenlik» – shaxsning ma’lum bir fanlar doirasidagi bilim, ko’nikma va malakalar bilan harakatlarning o’zaro bog’liq sifatlari yig’indisi, «kompetentlilik» insoning harakatiga mos kompetentlikni o’zlashtirish. Kompetentlik pedagogning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatning amalga oshirilishi uchun zarur bo’lgan bilim, ko’nikma va

malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo'llay olishi bilan ifodalanadi [4. 79-82 bb.].

Xulosa qilib aytganda, malaka oshirish tizimi (boshlang'ich ta'lism o'qituvchilar) tinglovchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda sinf rahbarlik uchun qo'yilgan talablarni quyidagicha ta'riflaymiz:

O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lism sohasidagi davlat siyosatining dolzarb masalalari;

Sinf rahbarning kasbiy kompetentligi va mahorati;

Sinf rahbar faoliyatida AKTdan samarali foydalanish;

Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish;

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va usullar modullari, hamda "Mutaxassislik fanlari bloki"dagi moduli bilan uzviy bog'langan holda o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik darajasini o'sishga xizmat qiladi. Tinglovchilarga sinf rahbari sifatidagi kasbiy kompetentligi va mahorati oshirishda zamonaviy yondashuvlari va jahon tajribasi bilan tanishtirish, to'plangan ma'lumotlar orqali bilim berish va amalda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish orqali ta'lism sifatining samaradorligini oshirish maqsadga muvofiqdir.

## **1.2-& BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHISI VA SINF RAHBARI AJRALMAS TUSHUNCHALARDIR.**

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun butun o'quv jarayoni darsda ham, darsdan keyin ham ta'lmdir. Bu jarayon boshlang'ich sinf o'quvchining psixologik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, ular uchun yetakchi faoliyat ta'lism faoliyati hisoblanadi. Shuning uchun boshlang'ich sinflarda sinf rahbari faoliyatining asosini ma'naviy-axloqiy tarbiya, o'quvchining "axloqiy poydevori"ni shakllantirish hisoblanadi. Sinf jamoasini shakllantirish sinfdagi o'quv jarayonini takomillashtirishga yordam beradi hamda o'quvchilarning bilimga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi.

Sinfda bolalar jamoasini shakllantirish qanday boshlanadi? Bu ish faqat kichik yoshdagi o'quvchilarning ota-onalari bilan yaqin hamkorlikda tashkil etish orqali sinf rahbarining ishi ota-onalar jamoasini shakllantirishdan boshlanadi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ota-onalari bilan ishslash ustuvor vazifa hisoblanadi. O'qituvchi va ota-onalar faoliyatining birligidagina ijobiy natijalarga erish mumkin. Bunda sinf rahbari imkon qadar barcha ota-onalarni mакtab faoliyatiga jalg qilashi lozim. Bu esa o'qituvchidan juda xushmuomalalik va har bir oilaga individual yondashishni talab qiladi. Ota-onalar ixtiyoriy ravishda maktab bilan hamkorlik qilishni xohlaydigan yo'nalishni masalan: madaniy, ma'rifiy va ijtimoiy, iqtisodiy va mehnat, sport va dam olish kabilarni tanlaydilar. Birinchi sinfdan boshlab ushbu yo'nalishlar bo'yicha ishlarni tashkil etilsa, kelajakda bolalarni sinf jamoasida tarbiyaviy ishlarni osonlik bilan shakllanadi.

I.I.Yudin va I.V. Kamenevlarning ta'kidlashlaricha, boshlang'ich sinflarda bolalarning ma'naviy ehtiyojlarini, ijodiy qobiliyatlarini va milliy o'zini o'zi anglashni rivojlantirishga qaratilgan sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni ota-onalar, ziyolilar, viloyat va shahar jamoatchiligi vakillari bilan hamkorlikda ishlarni tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ota-onalarni pedagogik jarayonning faol ishtirokchisiga aylantirish o'qituvchi oldidagi muhim va mas'uliyatli vazifadir. Agar sinf rahbarining ota-onalar bilan bo'lgan faoliyatining quyidagi yo'nalishlari sinf va maktab ish rejasida aks ettirilgan bo'lsa, bu muammoni hal qilish mumkin ko'rindan:

- o'quvchilarning oilalarini o'rganish;
- ota-onalarga pedagogik ta'lim berish;
- sinfda jamoaviy ishlarni tayyorlash va o'tkazishda ota-onalarning ishtirokini ta'minlash;
- sinfning ota-onalar kengashi faoliyatiga pedagogik rahbarlik qilish;
- ota-onalar bilan individual ishslash;

- ota-onalarni o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning borishi va natijalari to'g'risida xabardor qilish.

Sinf rahbari yuqorida qayd etilgan vazifalar sinfdagi tarbiyaviy ishning maqsad va vazifalari, sindf rahbarining shaxsiy va kasbiy xususiyatlari, muktab, sindf an'analari, o'quvchilar tarkibining o'ziga xos xususiyatlari, o'qituvchi va ota-onalarning o'zaro munosabatlar tamoyillarini rivojlanish tendentsiyalari bilan bog'liq holda ishlar amalga oshiriladi.

Boshlang'ich sinflarda sindf rahbarining ishi - bu maqsadli tizim, butun ta'lif muassasasining ta'lif dasturiga asoslangan rejali faoliyat hisoblanib, oldingi faoliyatni, ijtimoiy hayotdagi ijobjiy va salbiy tendentsiyalarni tahlil qilish, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida muktab pedagogik jamoasi oldida turgan dolzarb vazifalarini, sinfdagi munosabatlardagi vaziyatlarni hisobga olgan holda o'z ish vazifasini yuritadi. Sinf rahbari bulardan tashqari o'quvchilarning bilim darajasini, ularning turmushining ijtimoiy va moddiy sharoitlarini, oilaviy sharoitlarning o'ziga xos xususiyatlarini ham hisobga oladi.

Sinf rahbarining ishi diagnostika faoliyatidan boshlanadi. Diagnostika faoliyati quyidagi shartlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi:

- har bir o'quvchining rivojlanish xususiyatlarini aniqlash;
- diagnostika natijalari faqat o'sha o'quvchining rivojlanishdagi muvaffaqiyat darajasini aniqlash uchun oldingi natjalarni bilan solishtiriladi;
- o'quvchi va sindf jamoasini o'rganish butun o'qish yillari davomida amalga oshiriladi;
- o'quvchi va sindf jamoaning rivojlanish istiqbollari aniqlanadi;
- diagnostika o'quv jarayonining tabiiy sharoitida amalga oshiriladi.

O'quvchilar va sindf jamoani o'rganish nafaqat maxsus psixologik usullar yordamida, balki individual suhbatlar,

kuzatishlar, ota-onalar va o'qituvchilar bilan suhbatlar orqali ham amalga oshiriladi.

Ta'limning maqsad va vazifalarini diagnostika qilish va aniqlagandan so'ng, sinf rahbarlari tarbiyaviy ishning yo'nalishlarini tanlaydilar, ularning amalga oshirilishi sinfda tarbiyaviy ish tizimini shakllantirishning birinchi g'ishtiga aylanadi.

Boshlang'ich sinflarda sinf rahbarining sinfni boshqarish tizimidagi o'rni, birinchidan, ushbu sinf oldida turgan o'qitish va tarbiyaning umumiyligi vazifalari bilan belgilanadi;

ikkinchidan, sinf o'quvchilarning uyushgan birlashmasi sifatidagi o'rni;

sinf jamoasining asosiy va barqaror birligi va har bir o'quvchining o'z-o'zini anglashi uchun asosiy shaxs ekanligi;

uchinchidan, sinf rahbarining funksional vazifalari va sinfning ehtiyojlari;

to'rtinchidan, o'qituvchi shaxsining xususiyatlari kabi vazifalarni amalga oshirishi zarur hisoblanadi.

Sinf rahbarlari sinfdagi atmasferani mакtab pedagogik jamoasiga moslashtirish ishlari bilan ham shug'ullanishadi. Bunda ular quyigi ishlarni amalga oshiradilar:

Maktab psixologi bilan:

Sinf rahbari sinf bilan ishslash jarayonida maktab psixologi bilan o'quvchilarning individualligini, ularning moslashuvi va mikro va makrojamiyatga integratsiyalashuvini o'rganadi.

Sinf rahbari maktab psixologining ota-onalar bilan munosabatlarini tahlil qiladi, o'quvchilarning kognitiv, ijodiy qobiliyatlarini va imkoniyatlarini aniqlaydi, bolaga kelajakdagi kasbni tanlashga yordam beradi. Sinfdan tashqari individual va guruhli o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish shakllari va usullarini tanlashni muvofiqlashtiradi.

Fan to'garak o'qituvchilari bilan:

Ular bilan o'zaro hamkorlik o'quvchilarning bilim, ijodiy qibiliyatlarini kengaytirish, ularning o'z taqdirini o'zi belgilash, o'z-

o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini tarbiyalash, muloqot zonasini kengaytirish istagini rag'batlantirish uchun o'quvchilar uchun qo'shimcha ta'lim tizimining barcha xilma-xilligidan foydalanishga yordam olish;

o'quvchilarni kasbga yo'naltirish uchun qo'shimcha ta'lim muassasalaridan, turli xil ijodiy birlashmalarga (to'garaklar, seksiyalar, to'garaklar) kiritishga amaliy yordam beradi.

MMIBDO' bilan:

Sinf rahbari birgalikdagi ma'naviy tadbirlar o'tkazishga jalb qiladi, o'z sinfidagi o'quvchilarni maktabdan tashqari va ta'til vaqtida maktab miqyosidagi tadbirlarda ishtirok etishini ta'minlaydi.

Ijtimoiy o'qituvchi bilan:

Sinf rahbari o'quvchilarning shaxsiy inqirozlarini hal qilishda bolaning shaxsiyati va barcha ijtimoiy institutlar o'rtasida vositachi bo'lishga chaqiriladi. Ijtimoiy o'qituvchining bevosita ishtirokida sinf rahbari o'quvchilarning ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyatini, ijtimoiy tashabbuslarni rivojlantirishga, ijtimoiy loyihalarni amalgaloshirishga qaratilgan tadbirlarni tashkil qiladi.

Sinf rahbari kutubxonachi bilan hamkorlikda o'quvchilarning kitobxonlik doirasini kengaytiradi, ularda kitobxonlik madaniyati, axloqiy ideallarga munosabat, xulq-atvorning axloqiy me'yorlarini shakllantirishga hissa qo'shadi.

Sinf rahbari o'z ishida ta'lim muassasasi tibbiyot xodimlaridan olingan ma'lumotlardan foydalanib, o'quvchilarining salomatligi haqida doimo g'amxo'rlik qiladi.

## **2-& UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASASINING SINF RAHBARLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH TO'G'RISIDA**

Xalq ta'limi vazirligining 2021-yil 22-fevraldag'i "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 5-sinfdan boshlab yagona sinf rahbari faoliyati faoliyatini tashkil etish haqida"gi 41-sonli buyrug'i 1-ilova bilan sinf rahbarlariga qo'yilgan talablar o'zgarib yangi "Umumiy o'rta ta'lim muassasasining sinf rahbarlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi yangi Nizom ishlab chiqildi.

1-ilova

### **NIZOM**

#### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur nizom umumiy o'rta ta'lim muassasalari sinf rahbarlarining (keyingi o'rnlarda sinf rahbarlari deb yuritiladi) asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari va majburiyatlarini hamda faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Sinf rahbarlari o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va Qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasi qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining buyruqlariga, mazkur nizomga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq amalga oshiradi.

#### **2-bob. Sinf rahbarlarining asosiy vazifalari va funksiyalari**

3. Quyidagilar sinf rahbarlarining asosiy vazifalari hisoblanadi:  
ta'lim muassasasining tarbiyaviy tizimidagi tayanch pedagoglardan biri sifatida o'ziga biriktirilgan sinf o'quvchilarining (keyingi o'rnlarda sinf o'quvchilari deb yuritiladi) amalda belgilangan ta'lim va tarbiya olishlarini tashkil etish;

odob-axloq va ichki tartib qoidalariga muvofiq muomala va kiyinish madaniyatiga qat'yan amal qilish, jamoada namunali bo'lish;

o'quvchilarning o'sib-ulg'ayishlarini pedagogik kuzatuvlar asosida nazorat gilish, yordamga muhtoj o'quvchilarga yakka holda yondashish asosida ular qalbida milliy g'urur, vatanparvarlik, mehr-muruvvat, mas'uliyat, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik kabi xislatlarni uyg'otish;

sinf o'quvchilarining ma'naviy va ma'rifiy tarbiyasini tashkil etishda o'qituvchilar, yoshlar yetakchisi, psixolog, ota-onalar va ularning o'mini bosuvchi shaxslar (keyingi o'rnlarda ota-onalar deb yuritiladi), ta'lim muassasasi rahbariyati orqali voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar, mahalla, huquq-tartibot idoralari, tegishli davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikda ishlash.

Sinf rahbarlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalami ham bajarishi mumkin.

4. Sinf rahbarlari o'zlariga yuklatilgan asosiy vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

har tomonlama yetuk, barkamol-ma'naviy, aqliy, jismoniy rivojlangan shaxs tarbiyasini amalga oshirish, sinf o'quvchilarining qobiliyatlarini to'liq namoyon etishlari uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish;

pedagogik va o'quvchilar jamoasi hamkorligida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda bar bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlariga qarab yondashishni yo'lga qo'yish;

ertalabki saflanishlarda sinf o'quvchilarining belgilangan tartibda to'liq ishtirok etishlarini ta'minlash;

biriktirilgan sinf xonasidagi mavjud jihozlamning saqlanishini va ulardan samarali foydalanishni ta'minlash.

Sinf rahbarlari o'z faoliyatini o'quvchilarning yosh xususiyatlari, umumiylar rivojlanish darajasi va qobiliyatlarini hisobga olgan holda, keng qamrovli tarbiyaviy ishlar va aniq mezonlar asosida tashlcil etadi.

Jumladan:

a) Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo'nalishida:

o'quvchilarni Vatani va xalqiga sadoqat, fidoyilik, Davlat ramzlariga hurmat ruhida tarbiyalash;

o'quvchilar ongiga buyuk ajdodlarimiz merosi va xalqimizning bugungi buniyodkorlik ishlariga yuksak ehtirom tuyg'ularini singdirish, yurtimizdagи buniyodkorlik ishlari, inshootlar va ma'rifat maskanlari bilan ularni tanishtirib borish;

sinfda o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muhitini yaratish, tarbiya jarayoniga boy madaniy merosimiz, milliy odob-axloq me'yorlarini tatbiq etish, mehnatga ijodiy munosabatni tarbiyalash;

o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash, ulami jamiyatda o'z o'rnini topa oladigan shaxs sifatida shakllanishlari uchun zarur ko'nikmalarni rivojlantirish;

o'quvchilarni o'zbek va boshqa xalqlarning madaniy, tarixiy, milliy an'analariga hurmat ruhida tarbiyalash;

o'quvchilarni o'z huquq va majburiyatlarini biladigan va ularga rioya qiladigan inson sifatida tarbiyalash.

b) ota-onalar va mahalla bilan hamkorlik yo'nalishida:

barkamol avlodni tarbiyalashda "Oila - mahalla - ta'lim muassasasi" hamkorligi Jamoat kengashi faoliyatini keng tatbiq etish, aniq belgilangan reja asosida sind ota-onalar majlislarini o'kazib borish;

o'quvchilami ijtimoiy himoya qilish bo'yicha aniq choratadbirlar belgilash, jumladan, kam ta'minlangan oilalar farzandlari, ijtimoiy himoyaga muhtoj, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan, ota-ona qarovisiz qolgan, vasiylik va homiylikka berilgan voyaga yetmaganlarning ijtimoiy huquqlarini himoyalash;

o'quvchilarning ta'lim muassasasiga belgilangan mакtab formasida kelishlarini nazorat qilish;

o'quvchilar kundalik daftarlaring yuritilishini nazorat va tahlil qilish, o'quv qurollarining mavjudligi va to'g'ri tartibli saqlashlarini kuzatib borish, natijalarini ota-onalar bilan muhokama qilish;

o'quvchilarning turli salbiy diniy oqimlar ta'siriga tushib qolishining oldini olish, ularda bu borada immunitet shakllanishi uchun targ'ibot ishlarini olib borish;

ota-onalar bilan hamkorlikda ota-onalar majlislari, davra suhbatlari, muloqotlar uyushtirish, o'tkazgan tarbiyaviy ishlari yuzasidan pedagogik kengashlarda hisobot berish;

darslarga surunkali va muntazam kelmaydigan, tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlashda ularning ota-onalari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlik qilish, natijalari bo'yicha direktor huzuridagi yig'ilishlarga ma'lumot kiritib borish;

o'quvchilami ota-onalar va kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ruhida tarbiyalash, ularga kamtarlik, saxiylik va saxovatparvarlik, insonlarga yordam berish, mehribonlik, mehnatsevarlik xislatlarini singdirib borish.

d) o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, maktabdan va sinfdan tashqari faoliyatga jalb etish yo'nalishida:

o'quvchilarning qiziqishi, imkoniyati va qobiliyatlariga qarab fan to'garaklari, sport seksiyalari, badiiy-estetik, texnik, ekologik, sayyoqlik va o'lkashunoslik yo'nalishidagi to'garaklarga, klublarga jalb qilish;

qobiliyatli va iste'dodli o'quvchilami rag'batlantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga ko'maklashish;

milliy madaniyatning asosi bo'lgan musiqa va qo'shiq, kino, adabiyot, xalq og'zaki ijodi, teatr, naqqoshlik va me'morchilik kabi xalq amaliy san'ati turlari vositasida o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirish maqsadida ularni madaniyat maskanlariga ota-onalar bilan hamkorlikda jalb etish;

o'quvchilami yozgi sog'lomlashtirish oromgohlarida dam olishini tashkil etish, kuzgi, qishki va bahorgi ta'til kunlarini mazmunli o'tkazishi uchun ota-onalar bilan hamkorlikda sharoit yaratish;

turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda (bayramlar, ko'rik-tanlov, sport musobaqalari, uchrashuvlar, kechalar va boshqalar) sinf o'quvchilarining faol ishtirokini ta'minlash;

e) o'quvchilarning o'zini o'zi boshqarish tizimini takomillashtirish yo'nalishida:

sinf jamoasi bilan birgalikda sinf faollarini saylash va sinf ishlarini rejalashtirish, o'quvchilar davomatini muntazam kuzatib borish va tahlil qilish;

sinf o'quvchilarining ehtiyoji va qiziqishlarini har tomonlama o'rganish, ulami ahil jamoaga jipslashtirish va tashabbuskor o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash;

har bir o'quvchining o'zi uchun kun tartibi tuzishini tashkil etish va uning bajarilishini ota-onalar hamkorligida nazorat qilish;

o'quvchilarning huquqiy savodxonligini oshirish, har bir fuqaro, shaxs va muassasalar tomonidan bajarilishi shart bo'lgan qonun hujjatlari, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotda ro'y berayotgan o'zgarishlar haqida tushunchalar berib borish, qonunga humiat hissini shakllantirish;

o'quvchilarda maktab hududi, binosi, yo'laklari va sinf xonalarini ozoda tutish bilan bog'liq ekologik tarbiya ko'nikmalarini mustahkamlab borish.

f) pedagogik jamoa bilan birgalikda:

sinf o'quvchilarining ta'lim muassasasi (ustavida belgilangan) ichki tartib qoidalarini bajarishlarini ta'minlash;

sinf jurnali va faoliyatiga doir boshqa hujjatlarning to'g'ri yuritilishini ta'minlash;

o'quvchilar o'zlashtirishini yuqori darajaga ko'tarish, tartib-intizomni mustahkamlash maqsadida sinf majlislarini o'tkazib borish;

o'qishda yutuqlarga erishgan, umumiy foydali mehnatda, maktab hayoti va jamoatchilik ishlarida faol o'quvchilarni taqdirlash, ularning ota-onasiga tashakkurnoma, minnatdorchilik xatlari yuborish bo'yicha taklif berish;

sog'lom turmush tarzi, oilaviy hayot gigiyenasi hamda jismoniy tarbiya, zararli odatlardan saqlanish kabi masalalarga e'tibor berish;

o'quvchilarning past o'zlashtirish sabablarini aniqlash, bartaraf etish bo'yicha tegishli fan o'qituvchilari, yoshlar yetakchisi va maktab psixologi bilan bиргаликда yordam berish;

ta'lim muassasasi tibbiyat xodimlari, o'qituvchilari, psixolog va ota-onalar bilan hamkorlikda o'quvchilarning sog'lig'ini muhofaza qilish, ma'naviy-ma'rifiy, jismoniy va aqliy jihatdan rivojlanishini nazorat qilish;

o'quvchilarning ta'lim muassasasida texnika xavfsizligi, ularni muhofaza qilish,

sanitariya-gigiyena qoidalari va me'yorlari talablariga rioya qilishini ta'minlash;

kasbiy malakasini oshirib borish, yo'naliishi bo'yicha turli seminarlarda ishtirok etish.

Sinf rahbarlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalami ham amalga oshirishi mumkin.

5. Sinf rahbarlari zimmasiga mazkur nizom va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan vazifalami yuklash, ularni ish vaqtidan tashqari, faoliyatiga oid bo'lмаган yig'ilishlarga va boshqa tadbirlarga jalb etishga yo'l qo'yilmaydi.

6. Ta'lim muassasasidan tashqarida darsdan keyingi va ta'til paytidagi o'quvchilarning xatti-harakatlari uchun amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq sinf rahbarlari javobgar hisoblanmaydi.

### **3-bob. Sinf rahbarlarining huquq va majburiyatları**

7. Sinf rahbarlari ushbu nizomda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda quyidagi huquqlarga ega:

sinf o'quvchilarining dars mashg'ulotlari va imtihonlarida ishtirok etish;

bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun qo'shimcha darslar tashkil etish bo'yicha ta'lim muassasasi rahbariyatiga taklif kiritish;

o'quvchilar tarbiyasiga oid ilg'or ish tajribalarini amalga oshirish bo'yicha ta'lim muassasasi rahbariyatiga tashabbus bilan chiqish;

sinf faollari ishini nazorat qilish, ular bilan birgalikda yig'ilish kun taitibini belgilash va sinf yig'ilishlarini uyushtirish;

o'qishda yutuqlarga erishgan, umumiy foydali mehnatda, maktab hayoti va jamoatchilik ishlarida faol o'quvchilarni taqdirlashga tavsiya etish;

sinf soatlarni rejalashtirishda o'quvchilar yosh xususiyatlaridan kelib chiqib tanlangan mavzulariga o'zgartirishlar kiritish;

sinf soatlari mavzularining ta'sirchanligini oshirish uchun maktab psixologi bilan yaqindan hamkorlik qilish, zarur holatlarda dars jarayoniga maktab psixologini taklif qilish;

o'quvchilaming ota-onalari bilan ta'lim-tarbiya masalalari yuzasidan suhbatlashish, hamkorlik qilish, pedagogik maslahatlar berish;

o'quvchilar xulqini baholash;

hamkorlikda olib boriladigan tadbirdarda munta zam qatnashmaydigan, farzandi tarbiyasiga e'tiborsiz ota-onalar bo'yicha maktab kuzatuv kengashiga, "Oila-mahalla-ta'lim muassasasi hamkorligi" Jamoat kengashiga murojaat qilish.

Sinf rahbarlari o'z vazifa va majburiyatlarini bajarishda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

8. Sinf rahbarlarining majburiyatları quyidagilardan iborat:

sinf o'quvchilari bilan "bolaga do'stona munosabatda bo'lish" tamoyiliga rioya etgan holda munosabatda bo'lish, pedagogik jamoa, o'quvchilarning ota-onalari bilan muloqotda vazmin va xushmuomala bo'lish;

sinf o'quvchilarining davomatini nazorat qilish, sababsiz darsga kelmagan o'quvchilarning ota-onalari bilan (telefon orqali) bog'lanib, darsga kelmaganlik sabablarini o'rganish, natijalari

bo'yicha maktab rahbariyatiga axborot (zarur hollarda yozma) kiritish;

"O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida mobil telefonlardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizom", "Umumiyl o'rta ta'lim maktabi o'qituvchi va o'quvchilarining ichki tartib va odob-axloq qoidalari" hamda "Davlat umumiyl o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun zamonaviy yagona maktab formasini joriy etish tartibi to'g'risidagi nizom" mazmun-mohiyatini va talablarini sinf o'quvchilari va ularning ota-onalari e'tiboriga yetkazish;

amaldagi qonunchilik hujjatlariga ko'ra farzand tarbiyasida ota-onaning mas'uliyati, majburiyati va javobgarligi to'g'risida o'quvchilarning ota-onalari o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish;

o'zining ijtimoiy-siyosiy, huquqiy bilimlarini oshirib borish.

#### **4-bob. Sinf rahbarlari faoliyatini tashkil etish tartibi**

9. O'qituvchilar orasidan ta'lim muassasasi direktori tomonidan sinf rahbarlari tayinlanadi va ozod etiladi.

10. Sinf rahbari quyidagi mezonlarga asosan tanlab olinadi:

- kamida 3 yillik pedagogik ish stajiga ega bo'lgan;
- mактабда то'лиқ ставкада асосиyl ishchi sifatida faoliyat olib borayotgan;
- odob-axloqi va xulqi bilan o'quvchilarga shaxsiy namuna bo'la oladigan;
- ruhiy jihatdan barqaror bo'lgan;
- o'quvchilar bilan ishlash jarayoniga mas'uliyat bilan yondasha oladigan.

Boshlang'ich sinfda asosiy (o'qish, ona tili, matematika) fanlardan dars beradigan o'qituvchi sinf rahbari hisoblanadi.

O'rta va yuqori sinflarda sinf rahbarining o'zi ta'lim beradigan fani doirasida ham o'quvchilari bilan yaqindan ishlashini inobatga olgan holda o'quvchilarni guruhlarga bo'lib o'qitishni talab etadigan fan (jismoniy tarbiya, texnologiya, chet tili, informatika va axborot texnologiyalari va boshq.) o'qituvchilari hamda o'rindoshlik asosida

faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlarga sinf rahbarligini biriktirish maqsadga muvofiq emas.

11. Boshlang'ich sinfga tayinlangan sinf rahbari 1-sinfdan boshlab 4- sinfgacha o'quvchilarga yagona rahbar hisoblanadi. Xuddi shunday tartib 5- sinfdan 11-sinfga qadar ham qo'llaniladi.

12. Bir o'qituvchiga faqatgina bitta sinf rahbarligi topshiriladi. Direktor o'rribosarlari, psixologlar, yoshlar yetakchisi sinf rahbari bo'lishi mumkin emas.

13. Sinf rahbarlari faoliyatini ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rribosari nazorat qiladi va muvofiqlashtiradi.

14. Sinf rahbarlarining yillik ish rejasi ta'lim muassasasining umumiyligi asosida ishlab chiqiladi va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rribosari tomonidan tasdiqlanadi.

15. Sinf rahbarlarining yillik ishlarini rejalashtirish, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va o'tkazishga yordam berish, ularning samaradorligini oshirish, ishlarini muvofiqlashtirish, ish tajribalarini ommalashtirish maqsadida sinf rahbarlari uslubiy birlashmalari tashkil etiladi. Sinf rahbarlari uslubiy birlashmasiga barcha sinf rahbarlari a'zo hisoblanadi.

16. Sinf rahbarlari tomonidan quyidagi hujjatlar yuritiladi:

- sinf rahbari daftari;

- maktabning ichki ro'yxatiga kiritilgan tartibbuzar, tarbiyasi og'ir va surunkali dars qoldiruvchi o'quvchilar bilan amalga oshirilgan ishlar yig'ma jildi.

17. Sinf rahbarlari o'quv yili choraklari va yakuni bo'yicha hisobotlar tayyorlaydi.

Sinf rahbarlari faoliyat yo'nalishlari bo'yicha hisobotlarini ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rribosariga topshiradi.

### **5-bob. Sinf rahbarlari faoliyatini baholash**

18. Sinf rahbarlarining faoliyati bir yilda ikki marotaba (yanvar va iyun oylarida) umumiyligi o'rta ta'lim maktablari sinf rahbarlarining yillik faoliyatini baholash ko'rsatkichlari asosida baholanadi (jadval ilova qilinadi).

19. Baholash ishlari maktab direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha o'rribbosari boshchiligidan, tarkibida maktab direktorining harbiy-vatanparvarlik ishlari bo'yicha o'rribbosari-Chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchisi, maktab psixolog, yoshlari etakchisi, ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi bo'lgan ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi.

20. Ishchi guruh tomonidan amalga oshirilgan baholash ishlarining doimiy reytingi yuritiladi va reyting natijalari maktabning o'qituvchilar xonasiga ilib qo'yiladi.

21. Faoliyati "a'lo" baholangan sinf rahbarlarini maktab rahbariyati tomonidan moddiy-ma'naviy rag'batlantirish choralari kohdladi, tarmoq va davlat mukofotlariga tavsiya etiladi.

22. Faoliyati "qoniqarsiz" deb topilgan sinf rahbarlariga vaziyatni o'nglash va ish samaradorligini oshirish uchun maktab direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha o'rribbosari tomonidan keyingi baholash davriga qadar muhlat beriladi.

Navbatdagi baholash natijalari ham qoniqarsiz deb topilgan holatda mazkur sinfga boshqa pedagogi sinf rahbari qilib tayinlash bo'yicha maktab direktorining buyrug'i qabul qilinadi.

## **6-bob. Yakunlovchi qoidalar**

23. Ta'lim muassasasi ma'muriyati sinf rahbarlari yordamidan faqat ushbu nizomda belgilangan vazifalar doirasida ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rribbosari bilan kelishilgan holda foydalanishi mumkin.

24. Sinf rahbari mazkur Nizom bilan o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishda muntazam ravishda xato va kamchiliklarga yo'l qo'ygan taqdirda, maktab direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha o'rribbosarining taqdimnomasiga ko'ra maktab direktori tomonidan o'ziga biriktirilgan sinf rahbarligidan ozod etiladi.

2-ilova  
1-jadval

**Umumiy o'rta ta'lim maktablari sinf rahbarlarining yillik faoliyati quyidagi ko'rsatkizlar bilan baholanadi**

T /r	Faoliyatni baholash mezonlari	Maks ball	O'Ichov birligi	Ballar			Yil davomida har chorakda			
				I	II	III	IV			
1	Sinf o'quvchilarini fan va turli to'garaklarga jalb etish holati	20	O'quvchilar soniga nisbatan (foiz hisobida)	<b>20 % gacha 5 b</b>	<b>40 % gacha 10 b</b>	<b>50 % dan yuqori 20 b</b>	<b>20 %</b>	<b>30 %</b>	<b>40 %</b>	<b>50 %</b>
2	Sinf o'quvchilar bilan uyutirilgan turli xil ekskursiyalar	15	soni	bo'l-masa <b>0 b</b>	<b>2 ta bo'lsa 7,5 b</b>	<b>4 va undan yuqori 15 b</b>	1	2	3	4
3	Sinf o'quvchilarning o'quv tarbiyaviy va ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi turli tadbirlarda erishgan yutuqlar	10	soni	bo'l-masa <b>0 b</b>	<b>3 tagacha 5 b</b>	<b>4 va undan yuqori 10 b</b>	1	2	3	4
4	Taniqli shoir, yozuvchi, olim va tabdirkorlar ishtirokida sinfda o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar	10	soni	bo'l-masa <b>0 b</b>	<b>3 tagacha 5 b</b>	<b>4 va undan yuqori 10 b</b>	1	2	3	4
5	Sinf o'quvchilari tomonidan sodir etilganjinoyatchilik va huquqbu-zarlikholatlari	10	soni	<b>3 va undan yuqori 0 b</b>	<b>1 ta 5 b</b>	bo'l-masa <b>10 b</b>	0	0	0	0
6	Muntazam ravishda maktabga kelmaydi-	10	o'quvchilar soniga nisbatan	<b>0,6 va undan yuqori 0 b</b>	<b>0,4 gacha 5 b</b>	bo'lma sa <b>10 b</b>	0	0	0	0

	gan sinf o'quv-chilarning soni		(foiz hisobida)							
7	Sinf rahbari ustidan yo'llan-gan ariza va shikoyatlar	15	dona	shikoy at bo'lm asa <b>15 b</b>	<b>1 ta shikoyat 10 b</b>	<b>2 ta shikoy at 0 b</b>	0	0	0	0

**Izoh:** \*0-50 ball – “qoniqarsiz”, 51-75 ball – “yaxshi”, 76-100 ball – “a’lo”

## 2-jadval

### Sinf rahbari quyidagi mezonlar asosida tanlab olinadi

Sinf rahbari	Maktabda to'liq stavkada asosiy shtatda ishlashi
	Odob-axloqi va xulqi bilan o'quvchilarga shaxsiy namuna bo'lishi
	Kamida 3 yillik pedagogik ish stajiga ega bo'lishi
	Ruhiy holati barqaror bo'lishi
	O'quvchilar bilan ishslash jarayonida mas'uliyat bilan yondashishi
	Boshlang'ich sinfda asosiy (o'qish, ona tili, matematika va hokazo) fanlardan dars beradigan o'qituvchi

### **3-& XORIJIY MAMLAKATLARDA UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI VA SINF RAHBARINING ROLI.**

Fikrimizcha, turli islohotlarni, shu jumladan, chet el ta'lomidagi u yoki bu ibratli ish uslubini joriy qilishda Pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti, o'quv uslubiyat markazlari bilan bamaslahat ish korish maqsadga muvoffiqdir. O'ylaymizki, pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot insitituti Respublika o'quv-metodika markazlari ham chet el ta'limini joriy etish boyicha oquv muassasalarimizga o'zlarining nazariy-metadologik tavsiyalarini beradilar.

Berilgan yangiliklar, ma'lumotlar, axborotlar asosida har bir pedagogik jamoa o'z pedagogik faoliyatlarini tahlil etib, uni qayta ko'rib chiqadilar. Mamlakatimiz ta'limini yangi bosqichlarga ko'tarishga o'z hissalarini qo'shadi degan umiddamiz.

#### **Finlyandiya**

Mamlakatda na elita va na "bo'shroq" maktablar bor. Finlyandiyadagi eng yirik maktabda 960 nafar o'quvchi ta'lim oladi. Eng kichigida esa - 11 nafar. Barcha maktablar mutlaqo bir xil jihozlangan, birdek imkoniyatlarga ega va bir xil moliyalashtirilgan. Deyarli barcha maktablar - davlat maktablari bo'lib, o'nlab xususiy maktablar bor. Ularning ota-onalar qisman to'lov kiritishlaridan tashqari yana bir farqi - o'quvchilarga bo'lgan talabning yuqoriligidagi. Qoidaga ko'ra, bu o'ziga xos "pedagogik" laboratoriylar: Montessori, Fren, Mortan i Valdorf maktablari. Ingliz, nemis va fransuz tillarida ta'lim beriluvchi o'quv muassasalari ham xususiy hisoblanadi.

Finlyandiyada tenglik tamoyiliga rioya qilgan holda shved tilidagi parallel ta'lim tizimi mavjud - bog'chalardan tortib to universitetlarga. Saam xalqining manfaatlari ham unutilmagan, mamlakat shimolida ona tilida ta'lim olish mumkin.

Yaqin vaqtlargacha finlarga maktab tanlash taqiqlangan edi, bolalar shunchaki eng yaqin oradagi maktabga chiqishardi. Taqiq

bekor qilindi, lekin ota-onalarning aksariyati baribir bolalarni yaqin oradagi ta'lim muassasasiga berishni ma'qul ko'rishmoqda, zero Finlyandiyada barcha maktablar birdek yaxshi. Bundan tashqari fin ta'lim tizimida "o'rta" bosqichining 7 tamoyili mavjud. Bular: tenglik, bepul, individuallik, amaliyat, ishonch, istak-xohish va mustaqillik.

1. O'quvchilar boshlang'ich mакtabga 7 yoshdan qabul qilinadi.

2. Majburiy ta'lim 9 yil.

3. Xususiy mакtab yo'q.

4. Finlandiyada o'qituvchilar maqomi va ijtimoiy mavqeyi juda yuqori.

5. Mакtabni tugatgandan so'ng markazlashgan imtixon (Milliy Matriculation Test) topshirishlari talab qilinadi.

6. Darslar oralig'ida 15 daqiqa tanaffuz beriladi va bu vaqtida o'quvchilar turli o'yinlar o'ynaydilar.

7. Finlandiya rivojlangan mamlakatlar ichida eng kam dars soatlarini o'qitiladi va juda yaxshi natijalarga erishganlar.

8. 13 yoshigacha 4 ta tilni o'rganadilar.

9. Maktablar o'rtasida raqobat yo'q.

10. O'quvchilarning tushliklari davlat byudjeti tomonidan qoplab beriladi.

11. Har bir o'quvchiga AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniyaga qaraganda 30 % dan kamroq mablag' sarflaydi.

12. Finlandiyada sinf rahbarligi yo'q, ammo har 7 ta o'quvchiga 1 tadan o'qituvchi to'g'ri keladi.

13. O'qituvchilarning ilmiyligi kamida magistrlik diplomiga ega.

## **Germaniya**

Germaniya Konstitutsiyasiga muvofiq, mакtab ta'limi davlat nazoratidadir. Mamlakatda 16 ta federal hududlar mavjud bo'lsa, ularning har biri o'zining ta'lim to'g'risidagi qonuniga ega. Shu sababli federal hududlarning mакtab ta'lim tizimida ayrim farqlar bor. Masalan,

1. Boshlang'ich sinda 6 yoshdan 10 yoshgacha o'qiydi, ya'ni 4 yil.
2. Davlat maktablari mutlaqo bepul.
3. Mamlakatda umumiy ta'lif vazirligi yo'q. har bir mintaqaning o'z qoidalari bor.
4. Sinf rahbarlari uchun sinf soatlari yo'q. Shu sababdan sinf o'quvchilar bilan rahbari haftada 1 marotaba suhbatni masofaviy o'tkazadi.
5. Sinf rahbarligi uchun haq to'lanadi.
6. Boshlang'ich sinfning asosiy maqsadi-o'quvchiga asosiy bilimlarni berishi kerak.
7. Har bir sinfda o'rtacha 25 nafar o'quvchi bor.
8. Maktab formasi yo'q, hamma o'ziga qulay kiyimda kiyinadi.
9. Boshlang'ich sinfning dastlabki 2 yili oddiy o'yin shaklida bo'ladi. Bu davrda o'quvchilarga baho qo'yilmaydi.
10. 3-sinfdan boshlab o'quvchilarga baho qo'yila boshlaydi.
11. Germaniyada 6 ballik baholash tizimi qabul qilingan. Bunga ko'ra,

- 1 – a'lo;
- 2 – yaxshi;
- 3 – qoniqarli;
- 4 – yetarli;
- 5 – yetarli emas;
- 6 – qoniqarsiz.

## AQSH

Amerika Qo'shma Shtatlari juda zinch joylashgan. U jami 50 shtatdan iborat. AQSh ham ishlash uchun yaxshiroq va eng yaxshi mamlakat, chunki unda dunyodagi eng obro'li kompaniyalar mavjud. Agar kimdir AQShga joylashmoqchi bo'lsa, u o'z farzandlarining ta'limi haqida o'ylashi kerak. AQShdagi ta'lim dasturi dunyodagi eng yaxshi ta'lim dasturlaridan biri ekanligi ma'lum. AQSH maktablarida o'qish uslubi boshqa g'arb mamlakatlariga qaraganda biroz farq

qiladi. Shuningdek, AQSh ta'limi dunyoning istalgan davlatiga qaraganda ko'proq pul sarflaydi. Bu AQSh ta'lim tizimining eng yaxshilaridan biri bo'lishining sabablaridan biridir.

1. Boshlang'ich sinfga qabul qilish yoshi shtatlarga qarab 5-yoshdan 8-yoshgacha etib belgilangan.

2. Boshlang'ich sinfida 5-6 yil davomida o'qiydi (1-5 sinfgacha).

3. Boshlang'ich sinfdagi fanlarni deyarli 1 ta o'qituvchi o'tadi.

4. Amerikalik bolalar mакtabda 12 yil ya'ni 5-6-yoshdan 17-18-yoshgacha o'qiydi.

5. Boshlang'ich sinfda majburiy fanlar o'rgatiladi.

6. Sinf rahbarligi yo'q, lekin har bir o'quvchi fanlarni tanlash, kasbga yo'naltirish va universitetlarga kirish bo'yicha tavsiyalar beradigan kuratorlar mavjud.

7. Boshlang'ich ta'limning dastlabki 2 yilda qattiq tartib-intizom va jiddiy akademiklikga e'tibor berilmaydi.

8. Boshlang'ich sinfda asosiy fanlar – yozish, o'qish, matematika, atrofimizdagi olam fanlarini 1 ta o'qituvchi o'tadi.

9. Boshlang'ich sinfning dastlabki yilda kasb tanlashga jiddiy tayyorlanadi. Hatto ota-onalar sinfga kelib, o'z ishlari haqida gapiradilar yoki ishxonalariga sayot uyushtiriladi va u yerda o'quvchilar ma'lum bir kasb haqida ko'rgazmali saboq oladilar.

10. Nazariy bilimlarga qaraganda amamliy bilimlar ko'proq beriladi.

11. Savodxonlik darajasi 99 % ni tashkil qiladi.

12. 87 % bolalar davlat maktablariga va qolgan 10 % bolalar xususiy yoki uy maktablarga boradilar.

## Fransiya

Fransiya jahondagi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar ichida yetakchi orinlardan birini egallaydi. Uning ta'lim tizimi ham qadimiy va boy tarixga ega. Fransiya ta'limining asosiy maqsadi shaxsni har tomonlama kamol topishini ta'minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlarining kamol topishini taminlash, uni

mustaqil faoliyatga tayyorlash bozor munosabati sharoitida o‘quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlik va omilkorlikka orgatish va shunga xos kasbga yonaltirishdan iborat.

1. Har yili sinf rahbarlari almashтирилади.
2. Sinf rahbarining asosiy vazifalari ota-onani mакtab bilan bog‘lash va hujjatlarni yuritish uchun
3. Fransuz maktablarida alohida sinf soati mavjud emas.
4. Mакtabda faoliyat olib boradigan istalgan o‘qituvchiga sinf rahbarlik berilmaydi. Buning uchun mакtab rahbariyatining qarori va o‘qituvchining xoxishiga bog‘iq xolda tayinlanadi.

### **Shveytsariya**

Shveytsariya — dunyoda sayyoхlar eng ko‘p boradigan mamlakatlardan biri sanaladi. Ammo bu o‘lka chet elliklarni nafaqat betakror tabiatи-yu purviqor tog‘lari, balki yuqori sifatli ta’lim tizimi bilan o‘ziga jalg qiladi. Hatto mamlakatdagi rivojlangan ta’lim tizimi xorijliklarni o‘ziga chorlovchi asosiy tashrif qog‘ozi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Kuzatuvlarga ko‘ra, jahonga mashhur siyosatchilar, davlat arboblari, yirik biznesmenlarning ko‘pchiligi Shveytsariyada ta’lim olgan. Hozir ham boy oilalar farzandlarining Shveytsariya o‘quv yurtlarida tahsil olishi urfda. Xo‘sh, bu mamlakatdagi ta’lim tizimi qanday jihatlari bilan dunyoda yetakchilik qilmoqda?

Avvalo, Shveytsariya ta’lim tizimi universalligi bilan jahonga mashhur. Ya’ni, u bir vaqtning o‘zida ingliz-amerika, fransuz va nemis maktablariga xos xususiyatlarni birlashtiradi. Bu tizim mamlakatda 4 ta rasmiy til — fransuz, nemis, italyan va retoromat tillarining amal qilishi natijasida shakllangan. Zamonaviy Shveytsariya 26 ta har biri mustaqil kichik ma’muriy hududiy bo‘linma va viloyatlarga bo‘lingani bois, mamlakatdagi boshlang‘ich va o‘rta maktablar kichik bo‘linmalarga, universitetlar esa federal hukumatga bo‘ysunadi. Shuningdek, Shveytsariya ta’limda mehmondo’stlik modelini boshlab bergen birinchi davlat bo‘lib,

uning məktəb və universitetləri sayyohlik biznesining asosi hisoblanadi.

1. Shvetsariyada yagona tə'lim tizimi mavjud emas. Shuning uchun turli tumanlarida sinf rahbarlarining vazifalari har xil.

2. Shvetsariyada o'qituvchilik juda obruli va yaxshi maosh oladigan kasblar sirasiga kiradi.

3. Boshlang'ich sinf rahbari ko'p fanlardan o'zi o'qitadi va sinfdan tashqari ishlar uchun ham uning o'zi mas'ul sanaladi.

4. Alohidə sinf saatları yo'q, lekin o'quvchilar bilan haftalık suhbatlar o'tkaziladi.

5. Ularda o'rta maktabga o'tgandan so'ng sinf rahbarining vakolatlarını 2 ta kuratorga taqsimlaydi.

## **Italiya**

Italiyada davlat maktab tizimi yoki tə'lim tizimi 1859-yıldan beri mavjud. Italiya qonunlariga ko'ra boshlang'ich tə'limni majburiy qildi va savodxonlik darajasini o'sitishni maqsad qildi. Ammo qishloq hududlarida bolalar ko'pincha maktabga yuborilmas edi va savodsizlik darajasi 1861-yillarda deyarli 80% ni tashkil etardi.

**Italiyada umumiyy o'rta tə'lim** 6 yoshdan 16 yoshgacha majburiy va besh bosqichga bo'linadi: bolalar bog'chasi, boshlang'ich maktab, quyi o'rta maktab, o'rta maktab və universitet. Italiyada tə'lim bepul va Italiyada istiqomat qiluvchi barcha millat bolalariga bepul tə'lim beriladi. Italiyada ham xususiy, ham davlat tə'limi tizimi mavjud.

1. Boshlang'ich tə'limi 5 yil.

2. 1-sinfga 6 yoshdan qabul qilinadi.

3. Boshlang'ich tə'limdagi barcha asosiy darslar o'qish, yozish, rasm chizish, matematika və boshqalar.

4. Haftasiga 5 kun o'qitiladi.

5. 5 yillik boshlang'ich sinfni tugatgandan so'ng og'zaki va yozma shaklda imtixon topshiradilar.

6.Imtixon natijalari “O’tgan” yoki “O’tmagan” deb baholanadilar.

7.Baholar raqamlar o’rniga “A’lo”, “Yaxshi” va hokazolar tarzida baholanadilar.

8.Xususiy maktablarda o’qigan o’quvchilarga maktabni tugatgandan so’ng ularga maktabni tugatganligi haqidagi sertifikatlar berilmaydi.

### Rossiya

Rossiya umumiy o’rta ta’lim o’z ichiga boshlang’ich, asosiy va o’rta (to’liq) ta’limni qamrab oladi. O’rta mакtabda o’qish muddati 11 yilni tashkil etib, bunda 1-4 sinflar boshlang’ich ta’limni, 5-9 sinflar asosiy va 10-11 sinflar to’liq o’rta ta’lim dasturi asosida ta’lim oladilar ishchi yoshlar uchun kechki maktablar ham saqlab qolingan. Ammo so’ngi yillarda bunday maktablar soni anchayin qisqargan. Shu bilan birga 2 yoki undan ortiq smenadagi maktablar ham qisqargan.

1. Sinf rahbari haftsiga 1 marotaba sinf soati o’tadi.

2. Ota-onalar majlisi 1 chorakda 1 marotaba o’tkaziladi.

3.O’quvchilar bilan ishlashda mакtab psixologi bilan hamkorlikda ishlaydi.

4. Mакtab kutubchonachisi bilan madaniy-ahloqiy ishlarni tashkil qiladi.

5. Makat hamshirasi bilan o’quvchilarning salomatligini nazorat qilib boradi.

6. Boshlang’ich sinfda asosiy fanlarni 1 ta o’qituvchi o’tadi.

7. Rossiyada majburiy ta’lim 6-yoshdan 15-yoshgacha hisoblanadi.

8. Sinf rahbari asosiy o’quv ishiga qo’shimcha tarbiyaviy ishlari uchun qo’shimcha sifatida qaraladi.

## **Daniya**

Daniyada umumiy o'rta ta'lim olish 15-16 yoshgacha bo'lgan bolalarda majburiy. Chunki umumiy ta'lim u yerda taqdim etiladi va yoshlarning qariyb 82 foizi qo'shimcha ravishda o'zlar ta'lamoqchi bo'lgan sohalar bo'yicha ma'lumot oladi. Hukumat tomonidan moliyalashtiriladigan ta'lim odatda bepul va hamma uchun ochiqdir. Daniyada boshlang'ich maktab va yuqori maktabni taxminan 15,6% bolalar xususiy maktablarda vaucher tizimida o'qiydi.

2013-yildagi ma'lumotlarga asoslanib, Daniya ta'lim tizimi 0.873 ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, Avstraliya, Finlyandiya va Yangi Zelandiya ostidagi dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlar qatoriga kiradi. Daniyada savodxonlik darajasi erkaklar va ayollar uchun taxminan 99% tashkil etadi.

1. Daniya maktablari har bir sinfda 20 tadan o'quvchi o'qitiladi. Kamdan-kam hollarda 28-30 tagacha o'quvchi o'qitiladi. Bunday sinflar munitsipalitet sinf (shaharlarga qarashli maktablarning qishloqdagagi filial maktabi)lariga ruxsat beriladi.

2. Boshlang'ich sinfda imtixonga yo'naltirilmaydi va imtixon olinmaydi.

3. Har bir sinfda sinf rahbari mavjud.

4. Sinf rahbari fan o'qituvchilari bilan hamkorlikda ishlaydi.

5. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi boshlang'ich sinfda o'qitiladigan barcha fanlarni o'zi o'qitadi.

6. 7 yoshdan 16 yoygacha majburiy ta'lim. Ta'lim davomiyligi 9 yil va u mutloq bepul hisoblanadi.

## 4-& SINF RAHBARLARINING AMALIYOTDA QO'LLASH UCHUN TAVSIYA VA KO'RSATMALAR

Tarbiya ishlaridagi eng muhim sifatiy ko'rsatkich bu - maqsadga muvofiqlik belgisidir. Maqsad qanday bo'lsa, hamkorlik tomonlarining unga erishish uchun tanlangan yo'llari ham uzviy, o'zaro muvojqi bo'lishi kerak.

Quyida keltirilgan metodik jadval o'quvchilarining "Imtiyoz kodeksi" hisoblanib, unga asosan sinf rahbarlar io'quvchilarining dars va darsdan tashqari holatlarda qat'iy talablarni aks ettirgan "Imtiyoz kodeksi" bo'yicha tarbiyaviy ish yuritishi va o'quvchining tarbiyaviy tabeliga xulqi uchun umumiy baho qo'yib borishi lozim. Agarda natijani yaxshilash yuzasidaota-onalar bilan hamkorlikning zarurati tug'ilsa alohida qaydlar yozib, ota-onalarni ogohlantirishi lozim.

1-jadval

T/r	O'quvchining intizom qoidalari I.F.Sh.	Sifat ball	Jarima ball	Umumiy ball
1	Darsni sababsiz qoldirmaslik	5	-	
2	Darsga kechikib kelmaslik	5	-	
3	Darsda nojo'ya harakatlar sodir etmaslik	5	-	
4	Janjalli holatlarni keltirib chiqarmaslik	5	-	
5	Tadbirlarda faol bo'lish	5	-	
6	O'quv qurollarini to'liq bo'lishi	5	-	
7	Darsliklarga jaobgarligi	5	-	
8	Uy vazifalarni doimo tayyorlab kelish	5	-	
9	Navbatchilik	5	-	
10	Darslarda formada kelish	5	-	

11	Umumiyl tartib qoidalarga amal qilish	5	-	
12	Erishilgan yutuqlar	10	-	
	Jami:	65	0	65 (namunali)

Hafta davomida yig'ilgan miqdorga qarab o'quvchining ma'naviy-axloqiy tarbiyasidagi o'zgarishlarni aniqlashimiz hamda xulqiga baho qo'yish va tarbiyalanganlik darajalarini quyidagicha baholaymiz mumkin:

- "namunali" – (55 ball va undan yuqori ko'rsatkich) o'quvchi ijtimoiy me'yorlarga to'liq amal qiladi. Bilimdonlik va tarbiyalanganlik darajasini yuqoriligi bilan muntazam faollikda;
- "yaxshi" – (46-54 ball) o'quvchi ijtimoiy me'yorlarga amal qiladi. Yaxshi sifatlar va xulq-atvori bilan atrof muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- "qoniqarli" – (40-45 ball) o'quvchi ijtimoiy me'yorlarni bajarishga harakat qiladi, lekin intizom kodeks talablariga amal qilishda xatolarga yo'l qo'yadi;
- "qoniqarsiz" – (39 ball va unda past ko'rsatkich) tarbiyasida jiddiy bo'shliq bor.

Qoniqarli va qoniqarsiz ko'rsatkichga ega o'quvchilar bilan alohida ota-onas va o'qituvchilar, zarur bo'lganda esa mahalla birghalikda ishlaydilar va bunda "kuchli harakatlantiruvchi" metodlar tanlab olinadi. Biz yaxshi bilamizki, tarbiyaviy ishlarda "kuchli harakatlantiruvchi" va "ayaydigan" metodlar mavjud: birinchisi tanbeh berish va majbur qilish bilan, ikkinchisi nasihat qilish va doimiy o'rgatish bilan bog'liq ketadi.

## **Ota-onalar majlisiga farzandlari tomonidan tayyorlangan taklifnoma**

Sir emaski yaqin-yaqingacha ota-onalar mакtabga yilda bir-ikki kelishar edi. Hozir esa ahvol tubdan o'зgargan. O'quv dargohida bilim olayotgan bolalarning ota-onalari ta'lim jarayoni bilan juda yaqindirlar. Lekin to'g'risini aytish kerak, bu bilan ota-onalarini mакtabga jalb qilish muammosi to'liq hal bo'ldi deya olmaymiz.

Zero, mакtab va oila hamkorligi sifatli ta'limning asosiy omillaridan biridir.

Ota-onalar yig'ilishiga, onalarniku deyarli jalb qilib oldik, lekin otalar ta'lim jarayonida kamroq qatnashmoqdalar. Agar farzand tarbiyasida, uning ilm olishida, oilada otaning o'rni beqiyosligini hisobga olsak, ta'limga ota-onalarni jalb qilish orqali katta natijalarga erishish mumkin.

Shu niyatlarimizni amalgaga oshirish uchun men turli noan'anaviy usulda ota-onalar yig'ilishlarini tashkil qildim. Yaqinda 2-“A” sinfda ana shunday noan'anaviy ota-onalar yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilish avvalida yig'ilishga chaqirish uchun har bir bola ota-onasiga quyidagi mazmunda taklifnoma yozadi.

### **TAKLIFNOMA**

Assalomu alaykum men aziz bo'lgan dadajon va onajonim! Sizdan 5-sentabr shanba kuni soat 12:00 da mакtabimizga Ota-onalar yig'ilishiga kelishingizni iltimos qilaman. Sizlar meni juda yaxshi ko'rasizlar va albatta kelasizlar deb ishonch bildiraman.

Bolalarga taklifnomalar berib yuboriladi. O'quvchilardan ko'proq otalari kelishi talab qilinadi.

Yig'ilish tanishuv bilan boshlanadi. Buning uchun gugurt cho'plaridan foydalaniladi. Har biro ta-onsa istagancha gugurt cho'pidan oladi. Kim qancha olgan bo'lsa, o'zi haqida shuncha ma'lumot aytishi kerak bo'ladi.

Navbatdagi bosqichda “Kim farzandini yaxshi biladi?” sinovni o'tkaziladi. Bunda o'quvchilardan olingan anketa savollariga

javoblarni ota-onalarga o'qib beriladi. Sharti ota-onalar o'z farzandlarini bu javoblar orqali tanib olishlari zarur.

So'rovnoma quyidagicha:

1. Men uchun dunyodagi eng aziz kishi.
2. Eng sevgan taomim.
3. Eng sevimli fanim.
4. Yaxshi ko'rgan mashg'ulotim.
5. Eng qiziqqan narsam.
6. Eng yaqin do'stim.
7. Orzum.

Keying bosqichda ota-onalar o'zlarini baholash uchun "O'rgimchak to'ri" so'rovnomasini qo'llanildi. Ko'chma doskaga o'rgimchak to'rini va savollarni yozib qo'yiladi. "O'rgimchak to'ri"ning har bir qirrasi bitta savolni anglatadi.

Savollar:

1. Farzandingizga vaqt ajrata olasizmi?
  2. O'quv quroli va darslik bilan ta'minlaysizmi?
  3. Mabitga kelib turasizmi?
  4. Necha marta farzandingizning darslarida ishtirok etdingiz?
  5. Mabitga, sinfga yordan berib turasizmi?
  6. Farzandingizning o'rtoqlar va ularning ota-onalarini taniysizmi?
  7. Farzand tarbiyasiga oid kitoblar o'qiysizmi?
  8. Farzandingizga sovg'a qilgan eng so'nggi badiiy kitobingiz?
- "O'rgimchak to'ri" so'rovnomasini o'quvchilardan ham olib javoblari oldindan tayyorlab qo'yilgan bo'ladi va javoblarni bolalarning ota-onasiga beriladi. Javoblar mutanosibligini holislar ishtirokida ko'zdan kechirladi. Eng ko'p javoblari mos kelgan ota-onalar e'tirof etiladi. Javoblar bo'yicha ota-onalar o'zlarining darajalarini aniqlashtirib oladilar.

## ***MUROJAATNOMA***

Umumiy o‘rtta ta’lim maktabi o‘quvchilari telegram kanal orqali ota-onalarga murojaat qilib, ularning farzand ta’lim-tarbiyasidagi mas’uliyatini eslatamiz. Bu o‘qituvchilarning o‘quvchilar kelajagi yo‘lida hamkorlikda ishslash bo‘yicha ota-onalarga da’vati hamdir.

*“Hurmatli ota-onalar! Ushbu murojaatnomani diqqat bilan o‘qib, unga befarq bo‘lmaysiz degan umiddaman. Men va boshqa ustozlar aniq bilamizki siz jondan aziz farzandingizni ilm olishi va tarbiyasini bizga ishonib topshirgansiz va bu mashaqqatli ishga jon-jahdimiz bilan kirishganmiz. Ammo bola baribir ko‘proq uyda, oila davrasida bo‘ladi va u yerdagi muhit uning asosi hisoblanadi. Bola har jihatdan ota-onasiga ko‘proq quloq solidi.*

*Ammo afsuski ayrim ota-onalarimiz o‘z farzandlari tarbiyasiga mutlaqo befarqlar! Loaqal bolaning mакtabga formada borishini ta’minlab berishning iloji bormi? Bola istagan kiyimida mакtabga kelaversa! O‘quv qurollari bo‘lmasa! Kitob-daftarsiz mакtabga kelishdan nima naf? Bolaga darslik uyda saqlash uchun berilmaydiku. Uyda ham o’sha kitoblarni o‘quv yili davomida biror marta ochib ko‘rmaydigan o‘quvchilarimiz bor. Hurmatli ota-onalar!*

*Bolaning mакtabda o‘zini tutishi, ustozlariga munosabati, og‘zidan chiqayotgan so‘zlari, bular hammasi oiladagi muhit, u yerdagi tarbiyaga bog‘liq emasmi? Ne-ne umidlar bilan o‘stirayotgan farzandingizni qanday inson bo‘lib ulg‘ayayotgani sizni mutlaqo qiziqtirmasa? Bolaning qornini to‘qlab qo‘yib, egnini butlab qo‘yish bilan cheklanmaydiku ota bilan onaning burchi!*

*Afsuski, ba‘zi ota-onalar o‘zlarining vazifalari faqat shu deb o‘ylashadi. Holbuki, bulardan ham muhim, bulardan ham qiyin va bulardan ham asosiy vazifa ham bor, bu farzandning ma’naviy-axloqiy tarbiyasidir. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) bunday marhamat qilganlar:*

*“Ota-onan farzandiga yaxshi xulqdan ham ortiqroq meros qoldira olmaydi”. Demak, ota-onan farzandiga beradigan eng yaxshi narsasi qimmatbaho kiyim, yaxshi taom yoki ajoyib sovg‘a emas, balki go‘zal*

*xulq va yaxshi tarbiyasi ekan. Chunki kiyim, taom yoki sovg'a bolaga ma'lum vaqt foyda beradi, vaqt o'tishi bilan esa eskiradi. Go'zal xulq, yaxshi tarbiya esa farzandga umri davomida foyda beradi.*

*Hurmatli ota-on! Bu sizga ham iltimos, ham talab. Yuqoridagi e'tirozlarimizga jiddiy munosabatda bo'lasiz degan umiddaman.*

*Hurmat bilan, Ustoz va maktab ma'muriyati!"*

## **SINFDAN VA SINFDAN TASHQARI TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISH VA O`TKAZISH**

Sinf rahbari faoliyatining yana bir muhim bo'limlaridan biri bu - sinfdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va o'tkazish hisoblanadi.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va o'tkazish uchun odatda ikkita asosiy yo'naliш - g'oyaviy-tarbiyaviy ishlar va mакtab o'quvchilarining amaliy ishlarini tashkil etish birlashtiriladi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda ijodiy yondashish ayniqsa juda muhim omil sifatida qaraladi.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda ijodiy yondashish sinf rahbaridan doimo izlanishini, tashabbus ko'rsatishini va mohirona hal qilishi kerakligini talab qiladi. Bunda sinf bilan ko'p qirrali tarbiyaviy ishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan uni rejalashtirish sifatiga bog'liqdir.

Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish - bu shaxs yoki jamoani shakllantirish va rivojlantirish maqsadlariga erishish yo'llari, vositalari va usullarini ilmiy asoslangan holda aniqlash jarayoni. Sinf o'qituvchisining faoliyatini puxta rejalashtirishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Sinf rahbarining ish rejasi hujjatdir, uning asosida sinfda tarbiyaviy ishlar quriladi. U ishning istiqbollarini va sinfdagi pedagogik muammolarni hal qilishning aniq usullarini aniqlash imkonini beradi. Sinf o'qituvchisi o'z ishi davomida rejalashtirishning bir nechta turlarini amalga oshiradi. Sinfda tarbiyaviy ish dasturi tuzib olinadi va u juda uzoq vaqtni (uch yil yoki undan ko'proq) qamrab olishi mumkin.

## ***O'zbekiston-mening Vatanim!***

### **Kirish**

O'quvchilar məktəb formasında. Sinfda O'zbekiston Respublikası ramzlari va xaritasi bor. O'zbekiston iqtisodiga oid plakatlar.

Salom qismi:

1) Quyoshdek shu'la sochgan,

Bilimga keng yo'lochgan,

Bizni erkalab quchgan

Hamma: Sizgadir ushbu kalom

Muallimlar assalom!

2) Kunday yorug' dars xona

Biz farzandmiz, siz-onə

Bo'lib bizga parvona

Hamma: Dilda ardoqli kalom

Ona məktəb assalom!

3) Tanitib yurt, jahonga,

Erk bergen har insonga

Qaytdik dinu iymonga

Hamma: Dilda ardoqli kalom

Mustaqil yurt assalom!

O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi ijro etiladi.

**1-boshlovchi:**—Istiqlol quyoshi nur sochgan zamonda bolalik gashtini surayotgan biz baxtiyor avlodmiz.

**2-boshlovchi:**—Ha biz mustaqil O'zbekiston farzandlarimiz.

**1-boshlovchi:**—Baxtimizga bugungi osuda kunlarni bergen, mustaqilligimiz tayanchi bo'lgan Yurtboshimiz omon bo'lsin!

**2-boshlovchi:**—“O'zbekiston-mening Vatanim!” deb nomlangan tadbirimizga xush kelibsiz!

**1-boshlovchi:**—Bolalar, Vatan deganda nimani tushunasiz?

**1-o'quvchi:**—Vatan bu kindik qonimiz to'kilgan tuproq

**2-o'quvchi:**—Vatan-bubeshigimiz, ko'chamiz, uyimiz, turar joyimiz!

**3-o'quvchi:**—Vatan-bu muqaddas Ona tilimiz!

**4-o'quvchi:**—Vatan-bu buyuk millatimiz

**5-o'quvchi:**—Vatan-bu maktabimiz!

**6-o'quvchi:**—Vatan-bu ona tabiat in'om etgan barcha boyliklar va noz-u ne'matlar!

**2-boshlovchi:**—Mustaqillik deganda nimani tushunasiz?

**7-o'quvchi:**—Mustaqillik—o'z erkiga ega bo'lish, Vatan o'zimizni deganidir.

**1-boshlovchi:**—Mustaqillik bizga nima berdi?

**8-o'quvchi:**—Mustaqillik tufayli ma'naviy qadriyatlarimiz tiklandi.

**9-o'quvchi:**—Millatimizning o'zligini, milliy g'ururini himoya qilgan Fayzulla Xo'jayev, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosirlar xalqimizga qaytdi.

**10-o'quvchi:**—Dinimiz, Qur'oni Karim, Hadisi Sharif kabi ma'naviy boyliklarimiz, Navro'z, Hayit bayramlarimiz, udumlarimiz, qadriyatlarimiz yana xalqimizga qaytdi.

"Humo qushim" qo'shig'i

"O'zbegim" she'ri I-II bandi

*Tarixingdir ming asrlar*

*Ichra pinhon o'zbegim.*

*Senga tengdosh Pomiru*

*Oqsoch Tyanshon, O'zbegimm*

*So'ylasin Afrosiyo bu*

*So'ylasun O'rxun xati.*

*Ko'hna tarix shodasida*

*Bitta marjon, o'zbegim*

O'zbekiston. Rasmiy nomi—O'zbekiston Respublikasi. Poytaxti—Toshkent. Hududi—448,9 ming km<sup>2</sup>. Aholisi—26mln kishi. Davlat tili—o'zbek. Dini—islom, e'tiqod erkinligi davlat qonunlari bilan belgilangan. Pul birligi—so'm. Geografik joylashuvi—Markaziy Osiyodagi davlat. Iqtisodi—agrар davlat hisoblanadi. Sanoatning deyarli barcha tarmoqlari mavjud. O'zbekistonga qo'shni davlatlar:

Shimolda Qozog'iston, Janubda Turkmaniston va Afg'oniston, Sharqda Qirg'iziston va Tojikiston. (Xaritadan ko'rsatiladi)

Sahna ko'rinishi.

"Til qudrati"

**Muallif:** Qadim zamonda ikki olim bo'lgan ekan. Ular ikkalasi ham bir go'zal, farishta qizga ko'ngil qo'yishibdi. Shunda qizning otasi ulardan: —Sizlarning farzand tarbiyasi haqidagi fikrlaringizni bilmoqchiman,—debdi.

*Shunda birinchi olim:* —Men farzandimga riyoziyotdan, falakiyotdan saboq bermoqchiman. Unga ajnabiy tillarni o'rgataman,—debdi.

*Ikkinci olim esa:*—Men farzandimga avloddan—avlodga meros qoladigan asosiy boylik—ona tilimizni o'rgataman. Ona tili uchun jon fido qilishni, tilga xiyonat qilmaslikni uqtirmoqchiman. Unga o'z ona tilimizda ertak, doston, qo'shiqlar aytib beraman,—debdi.

Qizning otasi oqil va dono ekan. Unga ikkinchi olimning gapi ma'qul tushibdi va unga qarab: —Men seni o'zimga kuyov qilaman, chunki: "Farzandga bilim o'rgatishdagi sening fikring ma'qul",—debdi.

Ha, til katta qudratga ega.

"Ona tilim" she'ri

*Buyuk Temur jahon bo'ylab  
O'z dovrug'in slogan tilim.  
Mir Alisher bobomlardan  
Meros bo'lib qolgan tilim  
Bobur Mirzo she'rlaridan  
Rang va qiyos olgan tilim  
Shunday tildan tonar bo'lsam  
Qiyma—qiyma bo'lsin tilim  
Alla bo'lib jaranglagan  
Ona tilim-jon-u dilim*  
—Bolalar, sizlar asosiy sanalarimizni bilasizmi?  
*Bayroq, gerb, madhiya*

*Davlatimiz ramzidir  
Mohiya tinanglamoq  
O'g'il-qizning farzidir.*

O'zbekiston Respublikasining Davlat tili-o'zbek tili dir.

*O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 4-moddasi.*

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan. Unda fuqarolarning huquq, erkinlik va burchlari, O'zbekiston Respublikasi kelajagi o'z aksini topgan.

1991-yil 31-avgust-O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat deb e'lon qilindi.

1991-yil 1-sentabr-O'zbekiston Respublikasining mustaqillik kuni deb hisoblanadi.

1991-yil 18-noyabr-O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilindi.

1992-yil 10-dekabr-O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi qabul qilindi.

1992-yil 2-iyul-O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi qabul qilindi.

1989-yil 21-oktabr-O'zbekiston Respublikasi Davlat tili-o'zbek tili qabul qilindi.

"Barkamol avlod" qo'shig'i

Buyuk bobokalonlarimiz:

- Mirzo Ulug'bek she'ri
- Amir Temur she'ri
- *G'urbatda g'arib shodmon bo'lma semish,  
El angashafiqumehribonbo'lmasemish.*

*Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa,*

*Bulbulga tikondek oshiyon bo'lmas emish.*

**"Do'ppi tikdim" raqsi.**

**1-boshlovchi:** Mana aziz mehmonlar, o'quvchilar shuning bilan bugungi "O'zbekiston-mening Vatanim" nomli tadbirimiz o'z nihoyasiga yetdi.

**2-boshlovchi:** Biz o‘z tilak va istaklarimizni ushbu misralarda bayon etamiz:

*Asragin Ollohim O‘zbekistonni  
Keljagi buyuk nurli bo‘stonni  
Sodiq farzandlarini duolar qilar  
Tinchlik, osudalik hamrohing bo‘lar (M.Yusuf)*

## **OTA-ONALARGA SINF RAHBARLARRI TOMONIDAN BERILADIGA TAVSIYALAR:**

### ***TELEFON VA GADJETLAR-FOYDA VA ZARARLARI***

Mutaxasislarning fikrichi, bolalarning zamonaviy texnika yangiliklari bilan o‘zaro aloqasi muammosi o‘zining ijobiy va salbiy tomonlariga ega. Smartfonga ega bo‘lgan bolaga u har tomonlama, ya’ni ijobiy va salbiy ta’sir qiladi, lekin birinchi navbatda, aynan salbiy tomonlarini ko‘rib chiqish zarur, chunki ular birinchi darajali e’tiborga loyiqidir. Va zararli oqibat sifatida ularning mактабдаги o‘zlashtirishlari pasayganligi, ko‘rish qobiliyati va qomatiga ham ta’sir etayotganligi hech kimga sir emas.

Bu jarayonlarni oldini olish uchun ota-onalar nima qilishlari kerak?

Telefon va gadgetlar farzandingiz hayotiga qanchalik kech kirib kelsa, shuncha yaxshi;

Bola gadgetlardan foydalanganda qanchalik xavfsizligi va qancha foydalansa xavfli ekanligi haqida hech kim sizga aniq ma’lumot berolmaydi;

Oilada gadgetlardan foydalanishga cheklovlar bo‘lishi va aniq qoidalar bilan tartibga solinishi kerak.

Oilada quyidagi qoidalarni belgilash tavsiya etiladi:

Uch yoshgacha bolalarga telfon va gadgetlardan foydalanish vaqtin ota-onalar tomonidan;

Uch yoshdan so‘ng kuni 60 daqiqa gacha, bir soatni bir nechta choraklarga bo‘lib foydalanishga berish yaxshiroqdir;

Yeti yoshdan keyin kuniga bir soat, uzog‘i ikki soatgacha vaqt ajratib berish mumkin. Uzluksiz 1 yoki 2 soat emas, balki 2 soatdan ko‘ra yarim soatdan 4 marta orasida dam olib foydalansa yaxshiroq bo‘ladi;

10 yoshdan keyin 3-4-soatgacha, ammo o‘qishlari, darslari, to‘garaklari, qiziqarli hayoti mavjud o‘smir gadjetlar uchun talab qilinadigan shuncha bo‘s sh vaqt qayerdan olishi mumkin;

Shundan xulosa qilib aytish mumkinki, ota-onalarning vazifasi farzandiga gadjetlardan foydalanishni taqiqlash emas, balki uning haqiqiy hayotini shu qadar qiziqarli va mazmunli tashkillashtirib berish kerakki, shunda bolada virtual hayotga vaqt va xohishi ham bo‘lmay qoladi.

Bola ota-onasi bilan qiziqarli o‘yin o‘ynasa yoki vaqt ni mazmunli o‘tkazsa (park, teatr, kinoteatr, sayohat), albatta telefon yoki gadjetini shu vaqt davomida unutadi.

Telefon va gadjetlar bizning hayotda nima uchun kerakligini, ularning to‘g‘ri va foydali jihatlarini, gadjetlar faqat o‘yin o‘ynash va vaqt o‘tkazish uchun emasligini misollar bilan farzandingizga tushuntirib bering.

Farzandingizning kayfiyati bo‘lmasa telefon yoki gadget bilan kayfiyatini ko‘tarishga harakat qilmang. Ertalab uyqudan turgandan keying birinchi soat va yotishdan oldin oxirgi soat davomida gadjetlardan foydalanishga ruxsat bermang.

Oila a’zolaringiz bilan birga haftada bir kunni umuman telefonlarsiz o‘tkazishga urinib ko‘ring.

Avtomobilda telefonlardan foydanmagan ma’qul. Yaxshisi farzandingiz bilan qiziqarli mavzuda suhbatlashib ketish, so‘zlar orqali o‘yinlar o‘ynash, qo‘shiqlar, ertaklar, radio tinglash, yo‘l chetidagi ustunlarni va mashinalarni chiroyli raqamlarini hisoblash kabi mashg‘ulotlar bilan band qilgan ma’qul.

Farzandingizga ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni taqiqlamang. Sizdan yashirinchha foydalanishi mumkin va bu

yaxshilikka olib kelmaydi. Yaxshisi ulardan to'g'ri va xavfsiz foydalanishni o'rgating.

Agar bola kompyuter o'yinlarini yaxshi ko'radigan bo'lsa, uni dasturlash to'garagiga bering. Bunday to'garaklarga bolalarni besh yoshdan boshlab qabul qilishadi. To'garaklarda mobil uskunalarining qanday ishlashini chuqurroq o'rganib, virtual haqida kamroq xayollarga beriladi.

Taom tanovul qilish vaqtida gadgetlar va telefonlarni taqiqlang! Bu barcha oila a'zolari uchun qoidadir!

Televizor ham gadget hisoblanadi.

Telefonni hech qachon bolaning qo'lidan birdaniga tortib olmang, vaqt tugayotganligini 15 daqiqat oldin ogohlantiring-bu vaqtda bolangiz sizni eshitayotganiga ishonch hosil qiling. Keyin 10 daqiqa qolganini ayting. So'ngra 5 daqiqa. Shundan keyingina telefonni olib qo'ying. Shunda farzandingiz xotirjamlik bilan telefonni sizga beradi.

Oilada bir-biriga hurmat, o'zaro tushunish, Bolani boricha qabul qilish muhiti hukm sursa, umumiyl urf-odatlar va sevimli mashg'ulotlar mavjud bo'lsa, gadgetlarga qaram bo'lish ehtimoli past bo'ladi.

## **5 &. SINF RAHBARINGIZNI QANDAY BAHOLAYSIZ?**

Sinf rahbarining ish samaradorligini baholash uchun tegishli tartibda mezon va ko'rsatkichlarni aniqlash lozim. Bunda sindif rahbarining faoliyatini ikki guruhga ajratilgam mezonlari mavjud:

Birinchi guruh - maqsadli va ijtimoiy-psixologik funktsiyalar qanchalik samarali amalga oshirilayotganligini ko'rsatadigan samarali mezonlar. Faoliyat ko'rsatkichlari o'qituvchining o'quvchilarining ijtimoiy rivojlanishida erishgan darajasini aks ettiradi.

Ikkinci guruh - protsessual ko'rsatkichlardir. Shuningdek, ularda o'qituvchining pedagogik faoliyati va muloqoti qanday

amalga oshirilayotganligi, uning shaxsiyati mehnat jarayonida qanday amalga oshirilganligi, uning mehnat qobiliyati va sog'lig'i qanday, shuningdek, u o'quvchilarning qanday faoliyat va muloqot jarayonlarini tashkil etishini ochib berishi lozim.

Biroq, ko'rsatkichlar hamma uchun bir xil bo'lishi mumkin emas. Ular pedagogik jarayon ishtirokchilarining o'zлari tomonidan aniq maqsad va vazifalarni hisobga olgan holda belgilanadi va sinf rahbari, bolalar, fan o'qituvchilar va ota-onalarning introspeksiysi va o'zini-o'zi baholash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ular yetarlicha aniq, o'lchanadigan, bolalar va kattalar uchun tushunarli bo'lishi kerak.

Sinf rahbarining ish samaradorligini o'rganayotganda, ko'rsatkichlar dinamikasi har xil bo'lishi mumkinligini yodda tutish kerak. Shuningdek, ularning ba'zilari deyarli o'zgarmaydi va ba'zida oldingi bosqichga qaraganda yomonroq bo'lishi mumkin. Umumiy xulosa pedagogik jarayonni tavsiflovchi barcha olingan ma'lumotlarni taqqoslash asosida amalga oshiriladi.

Savol tug'iladi: "Sinf rahbarining faoliyati baholanadimi?" pedagogik faoliyat davomida doimiy ravishda mos keladigan kuzatish usullari yoki qo'llash haqida gap ketganda, ikkinchi tomondan, vaqtiga bilan maxsus tashkil etilgan "kesimli" tadqiqotlar (masalan, anketa) orqali amalga oshiriladi. O'quvchilar va ota-onalardan joriy, davriy, yakuniy, vaqt ajratilgan holda tashkil etish hamda natijalari tahili qilinishi lozim.

Sinf rahbari ishini chuqurroq o'rganish uchun turli davrlarda va turli usullardan foydalangan holda olingan ma'lumotlarni hisobga olish va tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Masalan boshlang'ich ta'limda sinf rahbari ta'lim-tarbiya jarayonining tashkilotchisi, faol va asosiy ishtirokchisi sifatida bola (o'quvchi) shaxsi shakllanishida o'ziga xos yo'nalish beruvchi hamda uni boshqarishga xizmat qiluvchi faoliyat egasi sifatida namoyon bo'ladi. Shularni hisobga olgan holda, o'qituvchi shaxsi va uning psixologik qiyofasini tasvirlash orqali hozirgi ta'lim-tarbiya jarayoni to'g'risida ham

umumiylashtirish mumkin bo'ladi. Mamlakatimizda o'qituvchi shaxsining turli jabhalardagi faoliyatlar o'rganilgan, lekin aynan boshlang'ich sinf o'quvchilari tasavvurida o'qituvchi (sinf rahbari) timsolini o'rganish borasida kam ishlar olib borilgan.

Mazkur masalani o'rganish maqsadida boshlang'ich (yuqori) sinf o'quvchilari o'rtasida sinf rahbariga bo'lgan munosabatni aniqlash anonim so'rovnama tashkil qilish ya'ni sinf rahbarining pedagogik faoliyati, shaxsiy va kasbiy kompetentliligini rivojlantirishda imkoniyatini kengaytiruvchi "Sinf rahbarim" so'rovnomasidan foydalanish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

### **"SINF RAHBARIM"** **(so'rovnama)**

Hurmatli o'quvchi, quyida sinf rahbarligiga xos xususiyatlar taqdim etiladi.

Siz ushbu xususiyatlarni sinf rahbaringizda qanchalik namoyon bo'lishini 5 balli tizim bo'yicha baholang. Agar ushbu xislat yaqqol namoyon bo'lsa - 5 ball, tez-tez namoyon bo'lsa - 4 ball, namoyon bo'lib tursa - 3 ball, ba'zan namoyon bo'lsa - 2 ball, kamdan-kam namoyon bo'lsa - 1 ball.

1. Sinf rahbaringiz sizga qanchalik mehribon?
2. Sinf rahbaringizda hushmuomalalik fazilati qanchalik namoyon bo'ladi?
3. Sinf rahbaringiz qanchalik quvnoq inson?
4. Sinf rahbaringizda sizni va sinfdoshlaringizni qanchalik darajada tushunish namoyon bo'ladi?
5. Sinf rahbaringiz qay darajada qattiqo'l?
6. Sinf rahbaringiz sizningcha qay darajada bilimli?
7. Sinf rahbaringizning sizga va sinfdoshlaringizga qanchalik darajada g'amxo'r?
8. Sinf rahbaringizning rostgo'yligini darajalang!
9. Sinf rahbaringizning talabchanlik sifati qanchalik darajada deb o'ylaysiz?

10.Sinf rahbaringiz sizga va sinfdoshlaringizga nisbatan adolatliligin qanchalik darajada deb o'ylaysiz?

11.Sinf rahbaringizning boshqa ustozlarga nisbatan ustun tomonini fikringiz bilan izohlang!

### **"Zamonaviy sinf rahbari" kim va qanday komponentlarga ega bo'lishi lozim?**

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda har bir soha vakillaridan o'z usilarida sohaga oid yangiliklardan zamon bilan hamnafas bo'lishni taaqozo qilmoqda. Shunga ko'ra bugun ta'lim-tarbiyada ham aynan zamonaviy kompetentsiyalarga ega bo'lgan o'qituvchilar katta yutuqlarga erishib kelmoqda.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5712-sonli "**O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida**"gi farmoni qabul qilindi. Farmonning 3-bobida "Xalq ta'limi tizimining asosiy maqsad va rivojlanish yo'naliishlari" belgilab berilgan. Unga ko'ra quyidagilar xalq ta'limi tizimining strategik maqsadlari hisoblanadi:

- umumta'lim tizimida iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi, ilg'or xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish, deb belgilangan.

Bundan kelib chiqqan holda quyidagilarni vazifalarni bosqichma-bosqich bajarish belgilangan:

- ta'lim berishning zamonaviy nazariyalarini o'zlashtirishni, pedagogik psixologiyani tushunish, ta'lim berishga kompetentlik hamda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asoslarini egallashni ko'zda tutgan holda pedagoglarni tayyorlash va qayta tayyorlash markazlari faoliyatini qayta ko'rib chiqish;

umumta'lim maktab kutubxonalarini o'quvchilar mustaqil tayyorlanadigan zamonaviy (smart) markazlarga aylantirish maqsadida ularning foydali maydonlarini kengaytirish va moddiy-texnik jihozlash, yagona axborot tizimiga birlashtirish, shuningdek

O'zbekiston Milliy kutubxonasi elektron resurslariga ulanish orqali ularning rolini oshirish;

o'quv muddatlarini o'zgartirmagan holda o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish kompetentligini kengaytirishni ta'minlovchi zamonaviy ta'lif texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish;

zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga muvofiqlikni ta'minlash maqsadida umumta'lif davlat ta'lif standartlari tizimini muntazam takomillashtirib borish.

Yuqorida aytilganlaridan kelib chiqib, sinf rahbarlarini kasbiy kompetentligini quyidagi so'rovnama bo'yicha aniqlab turishni tavsiya etamiz.

**"Zamonaviy sinf rahbari" so'rovnomasi (maktablardagi boshlang'ich sinf rahbarlarining mavjud ish holatlarini o'rGANISH bo'yicha)**

Hurmatli ustozlar, Sizga ma'lumki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi davrida ta'lif-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmonining mazmunini quyidagilar ya'ni: pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini "hayot davomida o'qish" tamoyili asosida takomillashtirib borish hamda pedagog va murabbiylarning jamiyatdagi o'rni va maqomini oshirish, ularning mashaqqatli mehnatlarini munosib qadrlash va faoliyat samaradorligiga qarab moddiy rag'batlantirish nazarda tutilgan.

Sizdan umumta'lif maktablardagi boshlangich sinf o'qituvchisining sinf rahbari sifatidagi kompetentligini rivojlantirish (malaka oshirish kurslari misolida) d modelining komponentlarini aniqlash, malaka oshirish jarayonida sinf rahbari faoliyati mazmunini yangilashning ilmiy-metodik imkoniyatlarini kengaytirish va joriy etishga doir so'rovnomada ishtirok etishingizni so'raymiz.

Ism va familiyangiz haqidagi ma'lumotlar keltirilmasligi sababli savollarga to'g'ri va xolis javob berasiz, degan umiddamiz.

Ishtirokingiz uchun rahmat!

**1. Hududingiz?**

Samarqand shahar, Samarqand tumani, Kattaqo'rg'on shahar, Kattaqo'rg'on tumani, Bulung'ur tumani, Jomboy tumani, Toyloq tumani, Ishtixon tumani, Pastdarg'om tumani, Nurobot tumani, Paxtachi tumani, Payariq tumani, Qo'shrabot tumani, Urgut tumani, Narpay tumani,)

**2. Yoshingiz?**

- 30 yoshgacha
- 30-39 yoshgacha
- 40-49 yoshgacha
- 50-59 yoshgacha
- 60 yoshdan yuqori

**3. Pedagogik ish stajingiz?**

- 1 yilgacha
- 1-5 yil
- 6-15 yil
- 16-25 yil
- 25 yildan ko'p

**4. Malaka toifangiz?**

- Mutaxassis
- 2-toifa
- 1-toifa
- Oliy toifa

**5. Ma'lumotingiz?**

- O'rta-maxsus ta'lim
- Oliy yoki bakalavriat
- Magistratura

**6. Sinfingiz?**

- 1-sinf

- 2-sinf
- 3-sinf
- 4-sinf

7. Maktabda sinf rahbaridan qanday hujjatlar yurutilishi talab qilinadi?

- Sinf jurnali, yillik ish reja, sinf o'quvchilarining tabellari, sinf yig'ma jildi
- Sinf jurnali, sinf o'quvchilarining tabellari, sinf yig'ma jildi
- Sinf jurnali, yillik ish reja, sinf o'quvchilarining tabellari
- Bunday hujjatlar mavjud emas

8. Maktabda sinf rahbarining vazifalari qaysi me'yoriy hujjatga asosan muvofiqlashtiriladi?

- Umumiy o'rta ta'lim muassasasining sinf rahbarlari faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi Nimozga asosan
- O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuniga asosan
- MMIBD o'rincbosarlarining ish rejalariga asosan
- Yuqori tashkilotlardan keladigan huquqiy me'yorlar hujjatlarga asosan

9. Sinf rahbari sifatidagi faoliyatizingizda qiyinchiliklarga duch kelsangiz, kimdan (nimadan) yordam so'rab murojaat qilasiz?

- Maktab ma'muriyati va boshqa sinf rahbaridan
- Metodist, uslubiy birlashma raisa va a'zolaridan
- Internetdan (ijtimoiy tarmoqlardan)
- Men yordam so'ramayman, chunki tajribam yetarli

10. Sinf rahbari ekanligingizdan qanchalik mammunsiz?

Sinf rahbari sifatidagi faoliyatimdan to'liq qoniqish hosil qilaman

- Qisman qoniqdim, yanada yaxshiroq sinf rahbarlik qilishni xohlayman, lekin yordam kerak
- Shunchaki zimmamga yuklatilgan vazifalarimni bajaraman
- Sinf rahbarligiga yaxshi haq to'laganligi uchun shu vazifada ishlayman

11. Maktab ma'muriyat sizdan quyidagi vazifalardan qaysi biri muntazam, qaysi birini vaqtı-vaqtı bilan bajarishni talab qiladi?

Vazifalar	Muntazam	Vaqtı-vaqtı bilan
Sinf o'quvchilarining dars mashg'ulotlari va imtihonlarida ishtirok etish		
Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun qo'shimcha darslar tashkil etish		
O'quvchilar tarbiyasiga oid ishlarini amalga oshirish		
Sinf faollari ishini nazorat qilish, ular bilan birgalikda yig'ilish kun tartibini belgilash va sinf yig'ilishlarini uyushtirish		
O'qishda yutuqlarga erishgan, umumiy foydali mehnatda, maktab hayoti va jamoatchilik ishlarida faol o'quvchilarni taqdirlash		
Sinf soatlarini tashkil etish		
Maktab psixologi bilan yaqindan hamkorlik qilish va arur holatlarda dars jarayoniga taklif qilish		
O'quvchilarning ota-onalari bilan ta'lif-tarbiya masalalari yuzasidan suhbatlashish, hamkorlik qilish, pedagogik maslahatlar berish		
O'quvchilar xulqini nazorat qilish		
Hamkorlikda olib boriladigan tadbirlerda muntazam qatnashmaydigan, farzandi tarbiyasiga e'tiborsiz ota-onalar bo'yicha maktab kuzatuv kengashiga va "Oila-mahalla-ta'lif muassasasi		

hamkorligi” Jamoat kengashlari bilan  
hamkorlikda ishlash

12. Maktabingizda sinf rahbarlari faoliyatini moddiy yoki  
ma’naviy rag’batlantiriladimi?

- Ha, moddiy va ma’naviy rag’batlantiriladi
- Faqat ma’naviy rag’batlantiriladi
- Bazi hollarda moddiy va ma’naviy rag’batlantiriladi
- Umuman rag’batlantirilmaydi

13. Sinfga doir hujjatlarni yuritishga munosabatingiz?

- Rasmiyatichilik uchun
- Hujjatlarni yuritishda juda e’tiborliman
- Maktab ma’muriyatining qat’iy talablari uchun hujjatlarini  
yurutaman

○ Hujjatlarni yuritishga qarshiman, chunki ortiqcha mablag’ va  
vaqtini oladi

14. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda qaysi manbalarga  
ko’proq murojaat qilasiz?

- Davriy nashrlar, uslubiy adabiyotlar va monografiyalarga
- Maktab ma’muriyatiga va hamkasblarimga
- Internetdan (ijtimoiy tarmoqlardan)
- Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda shaxsiy tajribamdan  
foydalanaman

15. Sinf jamoasini shakllantirishda qaysi mutaxassislarning  
yordami kerak va foydali deb o’ylaysiz?

- Maktab psixologi
- Maktab ma’muriyatiga va hamkasblarimga
- Mutaxassisga ehtiyojim yo’q, chunki tajribam yetarli
- \_\_\_\_\_

16. Sinf rahbari sifatidagi qaysi faoliyatizingizga ko’proq vaqt  
ajratasiz?

- O’quvchilar bilan ishlashga
- Hujjatlar bilan ishlashga

○ Kattalar bilan ishlashga (maktab ma'muriyati, fan o'qituvchilari va ota-onalar)

○ \_\_\_\_\_

17. Sinf rahbari sifatida ko'proq kim(lar) bilan ziddiyatga duch kelasiz? Jadvaldan tanlang va tegishli ustunga “+” belgisini qo'ying!

Ziddiyat toifalari	Ko'pinch a	Ba'zan	Kamdan kam	Bo'lishi mumkin emas
Sinf jamoasi bilan				
O'quvchilarning ota - onalari bilan				
O'quvchilari bilan (individual)				
Maktab ma'muriyati bilan				
Fan o'qituvchilari bilan				

18. O'tgan o'quv yilida siz uchun qanday maqsad va vazifalar eng muhim bo'ldi (rejadagi ishlarni yozish shart emas)?

○ \_\_\_\_\_

19. Sinf rahbari sifatidagi faoliyatningizda qanday kasbiy qiyinchiliklarga duch kelasiz?

○ Diagnostika (shaxsiyat, sindf jamoasi, tarbiya darajasi va boshqalar) va tanqidiy tahlil qilishda

○ Tarbiyaviy ishlarni rejallashtirishda va yangi pedagogik texnologiyalarda

○ Tarbiyasi og'ir o'quvchilar va ularning ota-onalar bilan ishlashda

○ \_\_\_\_\_

20. Siz sindf rahbari faoliyatining qaysi ish turlaridan muntazam, qaysi biridan esa vaqtiga-vaqtiga bilan foydalanasiz?

<b>Ish shakllari</b>	<b>Muntazam</b>	<b>Vaqti-vaqt bilan</b>
O'quvchilarning qiziqishlariga qarab, fan, sport, badiiy-estetik, texnik, ekologik, sayyohlik va o'lkashunoslik yo'nalishlaridagi to'garaklarga, klublarga jalg qilish		
Qobiliyatli va iste'dodli o'quvchilarni rag'batlantirish		
Milliy madaniyatning asosi bo'lgan musiqa, qo'shiq, kino, adabiyot, xalq og'zaki ijodi, teatr, naqqoshlik va me'morchilik kabi xalq amaliy san'ati turlari vositasida o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirish maqsadida ularni madaniyat maskanlariga ota-onalar bilan hamkorlikda jalg etish		
O'quvchilarni yozgi sog'lomlashtirish oromgohlarida dam olishini tashkil etish, kuzgi, qishki va bahorgi ta'til kunlarini mazmunli o'r kazishi uchun ota-onalar bilan hamkorlikda sharoit yaratish		
Turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirdarda (bayramlar, ko'rik-tanlov, sport musobaqalari, uchrashuvlar, kechalar va boshqalar) sinf o'quvchilarining faol ishtirokini ta'minlash		

Sinf jamoasi bilan birgalikda sinf faollarini saylash va sinf ishlarini rejalashtirish, o'quvchilar davomatini muntazam kuzatib borish va tahlil qilish		
Sinf o'quvchilarining ehtiyoji va qiziqishlarini har tomonlama o'rghanish		
Har bir o'quvchining o'zi uchun kun tartibi tuzishini tashkil etish va uning bajarilishini ota-onalar hamkorligida nazorat qilish		
O'quvchilarning huquqiy savodxonligini oshirish, tushunchalar berib borish, qonunga hurmat hissini shakllantirish		
O'quvchilarda maktab hududi, binosi, yo'laklari va sinf xonalarini ozoda tutish bilan bog'liq ekologik tarbiya ko'nikmalarini mustahkamlab borish		
Sinf jurnali va faoliyatiga doir boshqa hujjatlarning to'g'ri yuritib borish		
O'quvchilar o'zlashtirishini yuqori darajaga ko'tarish, tartib-intizomni mustahkamlash maqsadida sinf majlislarini o'tkazish		
O'qishda yutuqlarga erishgan, umumiy foydali mehnatda, maktab hayoti va jamoatchilik ishlarida faol		

o'quvchilarni taqdirlash, ularning ota-onasiga tashakkurnoma, minnatdorchilik xatlari yuborish		
Sog'lom turmush tarzi, oilaviy hayot gigiyenasi hamda jismoniy tarbiya, zararli odatlardan saqlanish kabi masalalarga e'tibor berish		
O'quvchilarning past o'zlashtirish sabablarini aniqlash, bartaraf etish bo'yicha tegishli fan o'qituvchilari, yoshlar yetakchisi va maktab psixologi bilan birgalikda ishlash		
Ta'lim muassasasi tibbiyot xodimlari, o'qituvchilari, psixolog va ota-onalar bilan hamkorlikda o'quvchilarning sog'lig'ini muhofaza qilish, ma'naviy-ma'rifiy, jismoniy va aqliy jihatdan rivojlanishini nazorat qilish		
O'quvchilarning ta'lim muassasasida texnika xavfsizligi, ularni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena qoidalari va me'yorlari talablariga rioya qilishini ta'minlash		
Kasbiy malakasini oshirib borish, yo'nalishi bo'yicha turli seminarlarda ishtirok etish		

21. Maktabda (tumanda, shaharda) sinf rahbarlari uslubiy birlashmasi (metodist)larining ish faoliyati yuritishi to'g'risida fikringiz?

- Yuqoridan berilgan topshiriqlarni bajarilishini nazorat qiladi
- Ish faoliyatimda amaliy va metodik yordam ko'rsatiladi
- Sinf rahbarlarining uslubiy birlashmalarining ish faoliyati tashkil etilmagan

○ \_\_\_\_\_

22. Sinf rahbarlari uslubiy birlashmasimalarini ish faoliyati rivojlantirishga takliflaringiz?

○ \_\_\_\_\_

**Izoh:** Ushbu so'rovnama docs.google.com saytida quyidagi manzili orqali Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi, Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasining "Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari" yo'nalishi tinglovchilarining 120 nafardan ortiq respondentlar qatnashgan.

<https://forms.gle/3wpD8cJiVArxmkxr5>

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni. – QHMMB: 03/20/637/1313-son, 24.09.2020 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lif-tarbiya va ilm-fan sohalari rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzlucksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2021-yil 22-fevraldagi 41-son buyrug'iga ilova. Umumiy o'rta ta'lif muassasasining sinf rahbarlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida Nizom.
5. Maxsudov P.M. Professional ta'lif tizimi uchun pedagoglar tayyorlash: muammo va takliflar. Zamonaviy ta'lif ilmiy-amaliy ommabop journal. №7 (92) 2020 yil. 42-49 bb.
6. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2021-yil 22-fevraldagi 41-son buyrug'iga ilova. Umumiy o'rta ta'lif muassasasining sinf rahbarlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida Nizom.
7. Musurmanova O. Pedagogik texnologiyalar – ta'lif samaradorligi omili: monografiya /O.Musurmanova. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. -184 b.
8. Koshanova N. Umumta'lif muktablarida sinf rahbarlari faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari (klaster yondashuvi asosida) avtoreferati. Chirchiq – 2021.
9. Raximqulova M.B. Malaka oshirish jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining uzlucksiz kasbiy kompetentligini takomillashtirish. Xalq ta'lif. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi

vazirligining ilmiy-metodik jurnali. 6-son 2021-yil (maxsus). 79-83 bb.

10.Axmedov T.Q. Malaka oshirish jarayonida o'qituvchi – pedagoglarni ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishga o'rgatish tizimini shakllantirish omillari. "Malaka oshirish tizimi – barkamol shaxsni shakllantirishda oila va uzlusiz ta'lim tizimi hamkorligini ta'minlovchi hamda ta'lim sifatini oshiruvchi ijtimoiy institut sifatida" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. 2012-yil, 19-iyun. 334-336 bb.

11.Avlaey O.U. "Boshlang'ich sinf o'qituvchilari tasavvurida o'qituvchi timsoli" Maktab va hayot jurnali, 2019-yil 2-son(142), 5-7 bb.

12.Abdullayeva G.A. O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini kvalimetriyalash. Maktab va hayot jurnali. № 6. 2021 yil. 35-36 bb.)

13.Sinf rahbari jurnali 2021-yil oktabr 10-son (106)

**M.B.RAXIMQULOVA, D.J.NURMANOVA**

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDAGI VA YUQORI SINF  
RAHBARLARINI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH  
(MALAKA OSHIRISH KURSLARINING ROLI)**

(Uslubiy qo'llanma)

**"QAMAR MEDIA" NASHRIYOTI**

**Muharrir:** Muhammad Sobir  
**Musahhih:** Osima Sobirjon qizi

**ISBN 978-9943-8048-3-8**

"Qamar media" nashriyoti, Toshkent shahar, Mirobod tumani  
Qo'yliq mavze-4, 3-uy, 26-xonodon. tel.: +99894-672-71-11

Terishga berildi: 02.06.2022-yil. Bosishga ruxsat etildi: 07.06.2022-yil.  
Bichimi 60x84 1/16, "Cambria" garniturasi.  
Bosma tabog'i 4,5. Adadi 50 nusxa. Buyurtma № 2022/17  
Noshirlik litsenziyasi: № 18-4178

---

Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning  
malakasini oshirish hududiy markazi bosmaxonasida chop etildi

ISBN 978-9943-8048-3-8

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-8048-3-8.

9 789943 804838